Shundan keyin o'qituvchi o'quvchilarga murojaat qiladi: «Sizlar planda tasvirlangan joyni qanday deb o'ylaysiz: tekismi, yassimi yoki sertepamiq Chiziqlarga qarang. Bu chiziqlar gorizontallar deyiladi. Ular "kartalarda mutlaq balandligi bir xil bo'lgan yuqталarni birlashtiradi. Bu chizikdarning kartaga qanday tushirilganini tushuntirish uchun tepa gorizontallar bilan qanday tasvirlanishini aniqlaymiz.

Tepani gorizontallar yordamida planda yoki topografik kartada darslikda ko'rsatilgani kabi tasvirlash uchun nivelir bilan avval dengizdagi suv satqidan boshlab qarbdan Sharqqa tomon o'lchab chiqish va suv satqidan 1, 2, 3 m va q. k. balandlikdagi nuqtalarga qoziqchalar qoqib chiqish kerak. So'ngra o'sha nivelir bilan Shimoldan Janubga yurib, o'lchab, qoziqchalar qoqish lozim. Shunday qilib, tepada dengiz satqidan 1 m balandlikka to'rtta qoziqcha, 2 m balandlikda to'rtta qoziqcha, 3 m balandlikka to'rtta qozoqcha qoqiladi va q. k.

Bu barcha qoziqchalar o'rni planda belgilanadi, so'ngra mutlaq balandligi 1 m bo'lgan qamma qoziq, keyin 2 m va 3 m bo'lgan ozikdar egri chiziq bilan tutashtiriladi. Natijada planda gorizontallar paydo bo'ladi.

E'tibor bering-a, gorizontallar bir-biriga yaqin joylashgan bo'lsa, yonbaqir tik, agar ular orasi uzoq bo'lsa, yonbaqir qiya bo'ladi. Gorizontallarga tik qilib chizilgan kichik chiziqchalar (bergshtrixlar) yonbaqir qaysi tomonga nishab ekanini bildiradi.

Gorizontallar bilan botiqlarni xam tasvirlash mumkin. Jarliklar yoki jarlarning tik yonbaqirlari mayda tishchalar bilan ko'rsatiladi (joy planidan jarni toping)».

qamma nuqtalari dengiz satqidan bir xil balandlikda yotadigan gorizental chiziqning moqiyatini orolning qirchoq chiziqi misolida osongina tushunish mumkin. Orol cho'kadigan bo'lsa, ma'lum oralikda yangi qirchoq chiziqi — gorizental vujudga keladi.

Bu uslub doskaga chizma chizib ko'rsatiladi. Tagiga tepa maketi o'rnatilgan akvariumda qirchoq chiziqi — gorizontallarni yanada yaqqolroq qilib ko'rsatish mumkin.

Tepaning fanerdan qirqib yasalgan modeli yaxshi ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi.

Doskada bu tepaning tagini bo'r bilan aylantirib chizilsa, so'ngra uning ustiga boshqa qamma qatlam chizib chiqilsa, tepaning chizmasi paydo bo'ladi. Tushuntirayotgan vaqtda tepaning gorizontallardan foydalanilgan tasvirini plandagi zinapoyalar tasviri bilan taqqoslash mumkin: tepaning balandligini gorizontallar oraliqini sanash bilan zinapoyalarni sanagandek osongana aniqlasa bo'ladi.

RASM

3-rasm Sim do'ngcha maketi.

Relefni gorizontallar bilan tasvirlash «qiyatini tushuntirish uchun shisha tepa yaxshi rgazma qo'llanma bo'lib xizmat qiladi (3-rasm). Tepa bir-birining ustiga taxdab qo'yilgan 4—5 ta oyna plastinkadan yasalgan. Eng pastki oynaga tush bilan «10» belgisi gorizental va nishab tomonni ko'rsatuvchi chiziqcha tushirilgan, ikkinchi oynaga «20» belgisi qo'yilgan va q.k.

Agar oyna yuqoridan qaralsa, ayrim ayrim egri chiziqlar (gorizonatallar) o'rniga tepaning relefi tasvirini ko'rish mumkin. O'quvchilar relef qaqida fazoviy

tasavvurni rivojlantirish uchun simdan yasalgan tepaning qarakat qiluvchi maketidan foydalanishi mumkin. Bu 3-rasmda ko'rsatilgan. Maketdan quyidagicha foydalaniladi. O'qituvchi, yashikning qavo rangga bo'yalgan qopqoqi suvni aks etgaradi, rel'efli tepa esa orolni, deb tushuntiradi. Orol asta-sekin suvga botadi. Birinchi gorizontol orolning qiyofasini bildiradi. Faraz qilaylik, suv satqi 5 m ko'tarildi. Eng yangi qirchoq chiziga paydo bo'ladi, uning qamma nuqtalari bir xil balandlikda, lekin oldingi qirchoq chiziqidan birinchi gorizontaldan 5 m balandda bo'ladi. Suv keyigi 5 m ga ko'tarilganda orol o'rtasiga etadi va birinchi gorizontaldan Yumbalanda uchinchi gorizontol qosil bo'ladi va q. k. Agar endi yashik qopqoqini olib tashlansa, fazoda muallaq turgan simlarni ko'rish mumkin, ular tepa relefining go'yo skeletini tashkil etadi. Shundan keyin sim gorizontallar yashik tagligiga tushiriladi va gorizontol tekis yuzadagi tasviri qosil bo'ladi u yoki bu ob'ektlar ko'rinishi yoki ko'rinishligini aytib berish mumkin va q. k. Uyga topshiriq: savollarga javob tayyorlash.

10-dars. Joy planini o'qish.

Jiqozlar: o'z oblastining maktab, tumani kartalari, transportirlar.

Bu darsda bolalarga topografik plan va kartani o'qiy bilishning muqim ekanligi qaqida yana bir marta eslatib qo'yish kerak.

qozirgi vaqtda mamlakatimiz yirik shaqarlarining planlari, ko'p tumanlarining turistik kartalari va oblastlar kartalari ommaviy tirajda bosib chiqariladi. O'quvchilar bilan «Plan va karta» mavzusini o'rganishda bu qo'llanmalar o'rnini qech narsa bosmaydi.

Agar maktab katta shaqarda joylashgan bo'lsa, bu darsda qar bir parta ustida bu shaqar plani, maktab qishloq maktabi bo'lsa yoki kichik shaqarda, ishchilar posyolkasida joylashgan bo'lsa, oblast kartasi bo'lishi zarur. qar bir maktab amaliy mashqulotlar uchun 10—15 nusxa ana shunday plan va kartalarni topishi mumkin. Bunday kartalar bilan ishlash taxminan quyidagicha olib borilishi kerak.

1. Partaga kartani (planni) shunday qo'yish kerakki, uni orientirlash mumkin bo'lsin. Shunday plan va kartalarning chap chekkasiga oldindan «Shimol-Janub» strelkasi chizib qo'yilsa yaxshi bo'ladi.

Shunda o'quvchilar kompasni shu strelka ustiga qo'yib, kartani gorizont tomonlariga tezda orientirlab oladilar.

Kartadan, taxminan bo'lsa qam, o'z aqoli punktini yoki plandan (agar shaqar plani bo'lsa) o'z ko'chasi va maktabini topish kerak.

Shunday keyin karta va plandan kerakli nuqtalarni topish bilan boqliq bo'lgan qator topshiriklar bajariladi. Masalan, oblast kartasi bilan bajariladigan ishlar taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

a) Bizning aqoli punktimizdan janubi-sharq tomonda 18 km maoofada qishloqbor(nomi). Bu qishloq nimasi bilan tanilganq

b) qishlokda (nomi) bizning ashqur qamqishlogamiz tugalgan va yashagan. Bu qishloq bizlardan qaysi tomonda va qancha masofada joylashganq Bu yo'nalishni ko'rsating.

v) qikoyani diqqat bilan eshiting: «Biz maktabdan Janubga qarab chiqdik va 44 km yurdik. So'ngra yo'limiz Janubi-Sharqqa burildi. Biz yana 6 km yurdik. Borgan joyimizdan Sharq tomonda... joylashgan». (o'quvchilar nima borligini aytishadi).

g) Tunda gulxan A qishlogadan 600 azimut yo'nalishida, B qishloqidan esa 2700

azimut yo'nalishida ko'rindi. Gulxan bizning aqoli punktimizdan qaysi tomondan va qancha masofada yoqildi

d) Biz aqoli punktimizda 3600 li azimut bo'yicha yuramiz. Biz yo'limizda qanday aqoli punktlarini va tarixiy yodgorliklarni ko'ramizq

Shunga o'xshash topshiriqlarni shaqar plani bo'yicha qam tayyorlash mumkin. Bu dars jonli va qiziqarli o'tishi kerak. Chunki aqoli punktlari va tarixiy yodgorliklarning ko'pini o'quvchilarning o'zlari bilishadi, ko'p joylarda bolalarning ota-onalari, o'zlari bo'lishgan, ba'zi joylarda ularning qarindosh-uruqlari yashaydi. Eng asosiysi, bolalar o'z oblastlari (shaqarlari) qaqida ancha yangiliklarni bilib olishadi. Bu esa o'z o'lkasi, o'z oblastiga muqabbat uyqotishga yordam beradi.

Bu darsda o'quvchilar kartada qam mashkdar bajarishadi (qar bir partada karta bo'lishi kerak); ular kartani kompasga qarab orientirlashadi (kompasni shimol-janub chiziqi kartaning 100 meridianiga mos keladigan qilib qo'yishadi) va oddiy qora qalam bilan o'z aqoli punktlarining o'rnini taqminan belgilab qo'yishadi (nuqta bilan). Shundan keyin o'z aqoli punktlaridan, masalan, Moskva shaqri, Orol, Oxota dengizlari, Pomir toqlari va boshqalarning qaysi tomonda ekanini (albatta qo'l bilan fazoda) ko'rsatishadi qamda qancha masofada joylashganini aniklashadi, bu ob'ektlarga samolyotda uchib borish uchun (tezlik soatiga 1000 km) qancha vaqt ketishini xdsoblab chikdshadi.

Uyga topshiriq: darslikdan o'qish va bu paragraf oxirida berilgan topshirikdarni bajarish.

GEOGRAFIK KARTA

11-dars. Erning shakli va o'lchamlari. Erning globusda tasvirlash xususiyatlari. Globuslar masshtabi

Jiqozlar: katta, o'rta va kichik globuslar, globus qar bir partada bir donadan bo'lishi kerak.

Dars boshida o'quvchilarga tabiatshunoslik kursidan bir necha savol berish kerak: 1. Sayyoralar yulduzlardan nimalar bilan farq qiladiq 2. quyosh sistemasidagi sayyoralar nomini ayting. 3. Erning sharsimon ekanligini isbotlovchi misollar keltiring. 4. Er sharida dunyo aylana sayoqat qilish uchun sayyoqqa qancha vaqt kerak bo'lardiq 5. Kosmik kema qancha minutda Er sharini aylanib uchadiq

O'qituvchi shunday deb davom etadi: «Bizning Erimiz shar shaklida bo'lganligi uchun uning tashqi ko'rinishi faqat globusda eng to'qri aks ettirilishi mumkin. Shuning uchun olimlar Erni o'rganishda juda qadimdan globusdan foydalanib kelishadi. Katta globuslarda er qimirlaydigan rayonlar Erning sun'iy yo'ldoshlari va kosmik kemalar uchib o'tadigan rayonlar belgilanadi».

Shundan keyin o'qituvchi mana bu ma'lumotlarni daftarga yozib olishni aytadi.

Er sharining diametri— 12750 km.

Er aylanasing uzunligi — 40000 km.

Erning qutb radiusi ekvator radiusidan 21 km qisqa.

So'ngra o'qituvchi bolalarga katta globusning masshtabini o'qishni buyuradi (1:30000000). Bu globusdagi barcha masofalar joydagi masofalardan 30 mln. marta qisqartirilgan deb xulosa chiqariladi. Keyin o'quvchilar o'rta va kichik globuslarning masshtabini aniqlashadi. Shundan keyingi ish globusda egiluvchan chiziq yordamida masofalarni anikdash bo'ladi. Agar egiluvchan chizqich bo'lmasa, uning o'rniga masofalarni santimetr va millimetrlarga bo'lingan qoqoz qirqimi yordamida o'lchash mumkin. Darsni mustaqamlashda o'quvchilar paragraf oxirida berilgan savollarga javob beradilar va topshiriqlarni bajaradilar.

Uyga topshiriq: o'qib gapirib berish, savollarga javob topib kelish
12-dars. Geografik kartalar. Kartalar masshtablari
Jiqozlar: yarimsharlarning tabiiy kartasi, kontur kartalar, globus.

Darsni o'qituvchi qikoya bilan boshlaydi: «Siz Erning shakli sharsimon ekanligini, modelining globus deb atalishini endi bilasiz. Globusga materiklar, okeanlar, dengizlar, daryolar, toqlar va boshqa geografik ob'ektlar tushirilgan. Er kurrasi yuzasining katta qismini okean va dengizlar egallagan.

Globusning bitta kamchiligi bor, u qam bo'lsa, uni ko'tarib yurish qiyin. Kishilar qadimdan Er shari yuzasini tekis yuzada, qoqozda tasvirlash ustida bosh qotirganlar. Er shari tasvirlangan kartalar bor. Shunday kartalar tuzish uslublaridan biri darslikda keltirilgan. Avvalo globusni meridian bo'yicha qirqib, bo'laklarga ajratiladi. Bu bo'laklar tekis yuzaga qo'yiladi. Bo'laklarning yuqori va past qismlari yoniga cho'ziladi, chunki ochiq joylar qolmasligi kerak. Bundap cho'zishlar kartada, ayniqsa uning yuqori va pastki qismlarida tasvirning buzilishiga olib keladi. Yarimsharlar kartasi boshqacha usulda tayyorlanadi, lekin unda qam buzilishlarni (xatolarni) yo'qotish mumkin bo'lmagan. Dunyo kartalarida buzilish ekvator dan qutblarga tomon ortib boradi. Shundan keyin o'quvchilarga Grenlandiya bilan Avstraliyaning avval dunyo kartasida, so'ngra globusda taqoslash taklif qilinadi. Dunyo kartasida Grenlandiya Avstraliyaga taxminan teng bo'lsa, globusda undan deyarli to'rt marta kichik bo'lib ko'rinadi.

Uyga topshiriq: Savollarga javob tayyorlash.

13-dars. Meridianlar va parallellar

Jiqozlar: yarimsharlarning tabiiy kartasi, partalardagi globuslar, qora globus.

Dars yoppasiga so'rashdan boshlanadi. o'qituvchi quyidagi savollarni beradi: 1. Nima sababdan kartalar xar xil mashtabli buladiq 2. Globusda masofalar qanday o'lchanadiq 3. Kartalar masshtabiga ko'ra qanday turlarga bo'linadiq 4. Sizning atlasingizda berilgan kartalardan qaysi birining masshtabi yirikroq (yarimsharlar kartasi masshtabimi yoki tabiiy kartasi masshtabimi) q

O'qituvchi, «Erning faraz qilingan o'z o'qi atrofida aylanishini va 24 soatda bir marta to'liq aylanib chiqishini endi sizlar bilasizlar, deb gap boshlaydi (o'qituvchi globusni bir marta aylantiradi). E'tibor bering-a, globus yuzasidagi qamma nuqtalar faraz qilingan o'q atrofida aylanadi, faqat shu o'q er yuzasi bilan kesishgan ikkita nuqtagina o'q atrofida aylanmaydi. (o'qituvchi doskaga aylana chizadi va unda Shimoliy qamda Janubiy qutblarni belgilaydi, o'quvchilar buni o'z daftarlariga chizib oladilar. o'quvchilar qutblarni globusdan qam topadilar). Erda qutblar belgilab qo'yilmagan, lekin Shimoliy qutbda turgan kuzatuvchi qutb yulduzni tik tepasida ko'radi.

Sizlar yana qutblardan barobar uzoqlikda ekvator joylashganini bilasizlar. Er ekvatorining uzunligi 40 ming km dan ortadi. Er kurrasida ekvator belgilanmagan, lekin siz ekvator da tursangiz, qutb yulduzini ufq chiziqida ko'rasiz».

Shundan keyin o'qituvchi meridianlar va parallellar deb nimalarga aytilishini tushuntiradi. o'quvchilarga globusdan, yarimsharlar kartasidan meridian qamda parallellarni topishni taklif qiladi. o'quvchilardan meridian va parallellar turli kartalar va globusda qanday tasvirlangan deb so'raydi.

O'qituvchi davom etadi: «Meridian aylanasing uzunligi taxminan 40 mln. m. Meridian aylanasi qam aylanadan iborat, shu sababli qar qanday aylana kabi meridian aylanasi qam 360 ga teng qar bir gradus esa 60 ta yoy minutiga bo'linadi. Shunday qilib, butun

aylanada 360 X 60 q 21 600 minut bor. Er meridiani bir minutining uzunligini bilish uchun meridian aylanasi uzunligini yoy minutlari soniga bo'lish kerak. Bunda 1852 m chiqadi. Bu kattalikni ancha qadimdan dengiz miliyasi deb ataladi. Kichikroq masofalar kabel'tovlar bilan o'lchanadi. Kabeltovlar dengiz miliyasining o'ndan biriga teng. Kemalarning suzish tezligi — kemalar bir soatda suzib o'tgan miliyalar soni uzellar bilan o'lchanadi. Kema bir soatda necha miliya masofani bosib o'tgan bo'lsa, uning tezligi shuncha uzel deyiladi».

O'quvchilarga quyidagi topshiriqlarni bajarishni taklif qilish mumkin:

- a) 1-meridian yoyning uzunligini qisoblab chiqaring (4000:360q 111 km).
- b) Materikning uzunligini muayyan meridian bo'ylab (o'qituvchi tanlab beradi) gradus va kilometr qisobida aniqlang.

Dars oxirida o'quvchilar kontur kartaga Shimoliy qutbdan Nil daryosi deltasigacha bo'lgan eng qisqa masofani chizishadi va o'qituvchining savollariga javob berishadi

1. Ural toqlarining o'rtasidan taxminan qanday parallel kesib o'tadiq

Uygatopshiriq: Savollarga javob tayyorlash.

14-dars. Globus va kartada kerakli nuqtalarni topish

Jiqozlar: yarimsharlarning tabiiy kartalari, globus.

Darsni o'quvchilardan so'rashdan boshlagan yaxshi: 1. qutblar deb nimaga aytiladiq 2. Ekvator deb nimaga aytiladiq 3. qutblar ekvatoridan qancha masofada (gradus va kilometr qisobida) joylashganq 4. Ekvator qaysi materiklarni kesib o'tganq 5. Ural toqlari shimoldan janubga 60 meridian bo'ylab qancha masofaga cho'zilganq Shundan keyin yangi materialni tushuntirishga o'tish mumkin.

«qaysi biringiz shaxmat o'ynashni bilasizq— deydi o'qituvchi— shaxmat o'ynaydigan odam shaxmat taxtasi 6 ta katakka bo'linganini biladi. Shaxmat o'ynayotgan odam, masalan, qar bir figura (dona) qaysi katakda ekanini telefon orqali aytishi mumkin. Shaxmat taxtasidagi barcha vertikal (bo'ylama) qatorlar lotincha qarflar bilan, gorizontal (ko'ndalang) qatorlar raqamlar bilan belgilangan. Agar bizga masalan, farzin a 3 katakda turibdi deyishsa, demak farzkn bo'ylama birinchi qator bilan ko'ndalang uchinchi qator kesishgan katakda joylashgan bo'ladi. Endi yarimsharlar kartasiga qarang. Uni meridianlar va parallellar kesib o'tgan. Bu chizikdarning qammasi o'z belgilariga ega. Masalan, kartalar va globuslarda ekvator 00ni, ekvatoridan shimoldagi birinchi parallel 100ni, ikkinchi parallel 200ni bildiradi va qokazo. Ekvatoridan janubdan o'tkazilgan parallellar qam shunday graduslar bilan belgilangan: 100, 200 va qokazo. Bu raqamlar joylarning geografik kengligini bildiradi. Ekvatoridan shimoldagi kengliklar shimoliy (sh.k.), janubdagisi janubiy (j.k.) kengliklar deyiladi».

Shundan keyin o'qituvchi karta va globusda joyning geografik kengligani qanday topishni, geografik kenglik deb nimaga aytilishini tushuntiradi. U Moskva, Toshkent, Leningrad, London, Sidney shaqarlari, Gavay orollari koordinatalarini aniqlash yuzasidan misollar keltiradi.

Dars oxirida o'quvchilarga o'quvchi quyidagi topshirikdarni bajarishga yordam beradi va so'zlab bering.

1. «Vostok» va «Mirniy» kemalaridagi rus ekspeditsiyasi 1821 yil 10 yanvarda orolni kashf qilishdi. Uning koordinatalari: 690 j. k. va 910 q. u. Bu orol ning nomi nima va u qaysi okeanda joylashganq (Petr I oroli).

Baliq ovlovchi flotiliya bazasi 500 sh. k. va 1500 sh.q. u. da joylashdi. Flotiliya

boshliga ko'rsatmasiga muvofiq kemalar baliq tutish uchun, bazadan quyidagi yo'nalishlarga jo'nashi kerak: 1-kema shimol tomonga 500 km ga, 2-kema qarb tomonga 800 km ga; 3- kema janub tomonga 1200 km ga va 4-kema sharq tomonga 1000 km ga borishi zarur. Kartada baza turgan joyni nuqta bilan bazadan punktlargacha cho'zilgan kemalar yo'nalishini strelkalar bilan belgilab qo'ying.

Katta orolning markaziy qismi 190 j. k. va 470 sh.q u. da joylashgan, bu orolda eng kichik chala maymunlar yashaydi (maymun tanasining uzunligi 12 sm). Karta yoki globusdan bu orolni toping, nomi nimaq (Madagaskar.) Yarimsharlar kontur kartasiga bu orolning nomini joyiga yozib qo'ying. Orolning uzunligi va kengligini kilometrlar qisobida anikdang.

Olimlar 800 sh.k. va 1400 sh.q. u. da suv osti toq tizmasi borligani aniqlashdi, u Shimoliy qutb orqali Grenlandiya oroligacha cho'zilgan. Bu toq tizmasining yo'nalishini kontur kartada belgilang va nomini yozib qo'ying (Lomonosov tizmasi).

Evropadan Avstraliyaga borayotgan kemada yongan chikdi. Kemadan radio orqali, kemanding 800 sh.q u da va 400 sh. k. da ekanligi, kapitan yordam so'rayotgani xabar qilindi. Falokatga uchraganlarga yordam berish uchun borish kerak bo'lgan joyni kartada nuqta bilan belgilang.

1937 yil fevral oyida «Shimoliy qutb» stantsiyasi joylashgan muzni oqim janubga uzoq masofaga olib ketdi va muz parchalandi. «Shimoliy qutb» stantsiyasidan lagerni qutqarish uchun borayotgan «Taymir» va «Murman» muzyorar kemalarga radio orqali stantsiyaning qaerda ekanligi qaqida to'xtovsiz xabar berib turildi.

Papaninchilar ekspeditsiyasi 1937 yil 19 fevralda taxminan 710 sh.k. va 200 q.u. da muz ustidan olindi. Bu joyni

kartada doiracha bilan belgilab qo'ying.

7. Vertolyot qamma tomoni shimol yo'nalishini ko'rsatadigan nuqtaga qo'nishi kerak. Bu nuqtaning kengligi va uzunligini aniqlang (Janubiy qutb, 900 j. k. va 00 uzunlik).

330 sh. k. va 130 shq.u.da joylashgan rayonda bir vaqt qavo qarorati 580S bo'lgani qayd qilingan. Bu joyni kartada qizil kvadrat bilan belgilab qo'ying.

Angliyadan Amerikaga uchib borayotgan samolyot 300 sh. k. va 700 q. u. da dengizga qulab tuttttdi. Uchuvchi rezina qayikda shimoli-sharq tomonga uzoq vaqt suzdi qamda 360 sh.k. va 500 q. u. da kemaga chiqarib olindi. Samolyot qulab tushgan joyni kontur kartada qo'shuv alomati bilan, uchuvchi rezina qayiqda suzib o'tgan yo'lni punktir chiziq bilan, kema uchragan joyni doiracha bilan belgilab qo'ying.

10. Dengizchilar okeanda ichiga xat solingan shishani topib olishadi. Xatda qalokatga uchraganlar yordam berishni so'ragan edilar. Shisha ichiga suv kirib, ayrim qarflar va raqamlar o'chib ketgan edi va joy qaqidagi aniq ma'lumot o'rnida quyidagilar qolgan edi: 420... k va 1730... u, yangi ... orol ... yaqin ... kema qaysi orollar yaqinida qalokatga uchraganq (Yangi Zelandiya).

Uyga topshiriq: berilgan topshiriqni bajarish.

15-dars. Kichik masshtabli kartalarda relefning tasvirlanishi

Jiqozlar: topografik va tabiiy kartalar.

O'qituvchi dars boshida qaytarish sifatida o'quvchilarga savollarga javob berishni taklif qiladi. o'qituvchi o'quvchilar javobini yakunlab, er yuzasining notekisliklari topografik planlarda gorizontallar bilan tasvirlanadi, deydi. Bunday kartalarda balandligi 2 m bo'lgan do'nglarni va chuqurligi 2 m bo'lgan botikdarni tasvirlash mumkinmiq

O'quvchilar bu savolga yo'q deb javob beradilar, chunki gorizontallar qar 2,5 m balandlikdan o'tkazilgan va 2,5 m gacha bo'lgan baland-pastliklar bunday kartalarda tasvirlanishi mumkin emas.

O'qituvchi davom etib, «er yuzining notekisliklari tabiiy kartada qam gorizontallar bilan tasvirlangan,- deydi. Aftidan birinchi gorizont - 28 m dan o'tkazilgan. Bu gorizont Kaspiy dengiz-ko'li qircoqi bo'ylab o'tkazilgan, bu dengaz ko'lining satqi Dunyo okeanidan 28 m past joylashgan. Ikkinchi gorizont boshqa qamma dengazlar qirgoqlari bo'ylab o'tkaziladi. Kartada yashil va och sariq ranglarni ajratib turgan uchinchi gorizont 200 m li absolyut balandlikni bildiradi. Kartada och yashil rang bilan sariq rangni ajratadigan uchinchi gorizont esa 500 m balandlikni bildiradi va q. k.

Tabiiy geografik kartalarda gorizontallar juda katta va qar xil balandliklardan o'tkazilganligi uchun bir necha o'nlab metr baland-pastliklar qam bunday kartalarda tasvir etilishi mumkin emas. Masalan, qarbiy Sibir tekisligida balandligi 100 m dan ortiq bo'lgan qirlar bor. lekin ular biz ko'rib turgan kartada ko'rinmaydi, ular ko'rsatilmagan, chunki tekislikni o'rab olgan gorizont 200 m li absolyut balandlikni bildiradi, 100 m li gorizont esa o'tkazilmagan».

Shundan keyin o'qituvchi relef tabiiy kartalarda qat-qat rang berish usuli bilan qanday tasvirlanishini ko'rsatadi.

Uyga topshiriq: Berilgan savollarni o'qish va ularga javob qaytarib kelish.

18-dars. Umumlashtiruvchi dars

ERNING qOBiqLARI

LITOSFERANI O'PGANISH DARSLARI

1- d a r s. Erning ichki tuzilishi

Darsni yangi materialni tushuntirishdan boshlagan ma'qul.

«Olimlar Erni o'rganar ekanlar,— deydi o'qituvchi, bizning sayyoramiz bir-biridan juda farq qiladigan bir necha qobikdan iborat, dega,n xulosaga keldilar. Bular qanday qobikdar ekanq

Erning qattiq tosh qobiga litosfera deb ataladi (lithos - grekcha tosh sphaira- shar).

Okeanlar, dengiz, ko'l, daryolar, er osti suvlari — suv qobiq — gidrosferani qosil qiladi (hydor- grekcha suv). Uchinchi qobiq gazlardan iborat. U atmosfera deyiladi (atmos- grekcha buq). To'rtinchi qobiq — biosfera (bios- grekcha qayot), unda qayot paydo bo'lgan va rivojlanib borayastgi. Niqoyat, beshinchi qobiq — geografik qobiq bo'lib, unda atmosfera, gidrosfera, litosfera va biosfera o'zaro tutashib turadi.

Bu o'quv yilida sizlar bu qobikdarning qar birini bilib olasiz.

Biz litosferani o'rganishni sayyoramizning ichki tuzilishi bilan tanishishdan boshlaymiz. Erning ichki qismida nimalar borligi qaqida biz qozircha juda kam bilamiz. Eng chuqur buq quduqining chuqurligi bor-yo'qi 12 km atrofida. Erning kattaligiga qiyoslaydigan bo'lsak, bu chuqurlik juda kam. Axir Erning radiusi 6000 km dan ortiq. 12 km ni 6000 km bilan taqqoslang. Lekin inson Erning ichiga bir necha km gacha kirib borgan bo'lishiga qaramay, olimlar uning ichki tuzilishi to'qrisida geofizik metod yordamida ba'zi bir ma'lumotlar oldilar. Geofiziklar er yuzasida yoki bir oz chuqurlikda portlash o'tkazishadi. Juda sezgir maxsus asboblari Er ichida tebranish to'lqinining qanday tezlikda tarqalishini yozib oladi. Ana shu yozuvlarga qarab chuqurda qanday toq jinslari borligi aniqlanadi. Bu ish maxsus jadvallar yordamida bajariladi. Bunday jadvallarda tovush to'lqinlari turli toq jinslaridan qanday tezlikda o'tishi yozilgan. Geofiziklar ishi

juda sinchkovlikni, chuqur bilimni va katta aniqlikni talab qiladi.

Shunday qilib, geofiziklar Er shari 30 km chuqurlikkacha er yuzida uchraydigan qum, gil, oqaktosh, granit va boshqa jinslar qatlamlaridan tuzilganligini anikdashdi. Toq jinslarining bu qatlamini olimlar yuqorida aytganimizdek, Er po'sti, ya'ni litosfera deb atashgan.

Er po'stidan Er yadrosigacha deyarli 3 ming km da mantiya joylashgan. Olimlar qozircha mantiya jinslarini er yuzasiga chiqarib ololganlari yo'q».

Shunday keyin bizning mamlaktimizda kavlangan Erdagi eng chuqur burq quduqi qaqida gapirib berish kerak.

Uyga topshiriq: darslikdan «Er sharining ichki tuzilishi» sxemasini. Berilgan savollarga javob qaytarish.

2-dars. Er po'stini tashkil qilgan jinslar

Jiqozlar: minerallar va toq jinslari kolleksiyasi.

O'qituvchi o'quvchilardan so'rab bo'lgandan keyin o'quvchilarga ular tabiatshunoslik darslarida tanishgan minerallar va toq jinslarining nomini aytishni taklif qiladi «qo'rib turibsizki,— deydi o'qituvchi, Er po'stini tashkil etgan mineral va toq jinslari juda ko'p. Sizlar faqat ozroq mineral va toq jinslari nomini aytdingiz. Ularning soni bir necha mingga etadi. Lekin ular qosil bo'lishiga qarab uch gruppaga bo'linadi: magmatik, cho'kindi, metamorfik».

Shundan keyin o'qituvchi doskaga, o'quvchilar esa o'z daftarlariga uchta ustunli jadval chizishadi. Birinchi ustunga magmatik, ikkinchisiga cho'kindi va uchinchisiga metamorfik toq jinslarining nomlarini yozishadi. Bolalar qar bir toq jinsining nomini daftarga yozishlaridan oldin o'qituvchi uni ko'rsatadi, uning xususiyatlarini qisqacha gapiradi va imkoni boricha qar bir toq jinsidan xo'jalikda foydalanish qaqida so'zlab beradi.

Masalan. G r a n i t — juda qattiq toq jinsi, odatda pushti rangda bo'ladi. Dala shpati, kvarts va slyuda zarralaridan tuzilgan bo'ladi. Granitdan qaykallar yasaladi. Moskva, Toshkent metropolitenining ba'zi stantsiyalarini devorlari, ustunlari granit bilan qoplangan.

qumtosh mustaqkamlangan qumlardan iborat. U juda pishiq va yaxshi qurilish materiali qisoblanadi. qumtoshdan binolarga poydevor, ko'priklarga tayanch ustun ishlanadi. Bundan tashqari qumtoshdan tegirmon toshlari, bruslar, charqtoshlari tayyorlanadi. qumtosh rangi juda qar xil bo'lishi mumkin: oq, sariq, jigar rang, qizil.

Oqaktosh oq, sarqish, kul rang bo'ladi. Agar oqaktoshga sirka tomizilsa, tomchi tushgan joyda pufakchalar paydo bo'ladi va pishirlagan ovoz chiqadi. Oqaktoshdan qurilishda keng foydalaniladi. Undan oqak va sement tayyorlanadi. Mamlakatimizning bir qancha rayonlarida tuproqqa oqakli o'qit solinadi.

Slanets odatda to'q rangda bo'ladi. Urilganda aloqida qatlamchalarga prachalanadi.

Slanetslarning ayrim turlari qizitilsa, kerosin qidi chiqadi yoki o'zi yonadi. Yonuvchi slanetslar sanoat uchun qimmatli xom ashyo bo'ladi.

«Cho'kindi jinslar» ustuniga nuroq jinslar, organik jinslar va ximiyaviy yo'l bilan qosil bo'lgan jinslarni aloqida-alloqida yozish kerak.

Metamorfik toq jinslari qaqida gapirganda yuqori qarorat ta'sirida toq jinslari o'zgarib, boshqacha xususiyatlarga ega bo'lib qolishi qaqida misol keltirish mumkin. Masalan, loy 15000S gacha qizdirilsa, gashtga o'xshagan bo'lib qoladi. Endi uni suvga qancha solib qo'ymang plastik qolatiga qaytmaydi.

Uyga topshiriq: darslikdan o'qish va paragraf oxirida berilgan savollarga javob tayyorlash.

3-dars. Er po'stining qarakatlari

Jiqozlar: Yarimsharlarning tabiiy kartalari, «Zilzila» kino lavqasi.

Dars boshida o'qituvchi o'quvchilardan so'rab chiqadi. O'quvchilar bilimini tekshirish uchun savollar: 1. Litosfera qanday jinslardan tuzilgan? 2. Magmatik jinslarni ta'riflang. 3. Cho'kindi jinslar qanday gruppalariga bo'linadi? 4. Metamorfiklashish natijasida qosil bo'lgan jinslar nomini ayting. 5. Siz yashaydigan joy atrofida qanday toq jinslari uchraydi?

Yangi materialni o'rganishni o'quvchilarning darslik bilan ishlashidan boshlash mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga darslikdan o'qishni taklif qiladi. So'ngra u quyidagi savollarga javob berishlarini so'raydi:

1. Er po'stining muayyan davrlarda asta-sekin ko'tarilishi yoki cho'kishini isbot qiladigan qanday dalillar borligi o'quvchi aytib o'tadi.
2. qozirgi vaqtda Evropa materigining qaysi joyi asta-sekin ko'tarilyapti, qaysi joy pasayapti? Bu qaqida qam gapirib o'tadi. Shundan keyin o'qituvchi er qimirlashlar qaqida so'zlab beradi.

O'qituvchi qikoyasini shunday boshlaydi: «Zilzila tabiatning insoniyatga daqshatli kulfatlar keltiruvchi eng daqshatli qodisalaridan biri. Er yuzida qalokatli zilzilalar kam — qar yili o'rta qisobda bir marta, kuchli qalokatli bo'lmagan zilzilalar qar yili o'rta qisobda o'ntagacha, buzuvchi zilzilalar yuztagacha, qisht imoratlarga zarar etkazuvchi qimirlashlar mingtagacha, buzilishlar bo'lmaydigan qimirlashlar o'n mingtagacha, maxsus asoboblar yozib oladigan zilzilalar yiliga yuz mingtagacha ro'y beradi. Duyonda ro'y beradigan zilzilalarning choragi Yaponiyaga to'qri keladi.

Tojikistonda seysmograflar qar yili mingtagacha zilzilani qayd qiladi. Zilzilalarda silkinishlar sekundlarda davom etadi. Lekin .ba'zan er silkinishlari to'xtab-to'xtab bir necha kun, oylab va qatto yillab davom etadi. Chunonchi, Verniy (Olmaota) shaqarida 1887 yil 28 mayda boshlangan zilzila uch yilcha davom etgan va bu vaqt davomida bir necha marta er silkingani kuzatilgan».

Shundan keyin o'qituvchi er qimirlashning sabablarini tushuntiradi, o'qituvchi doskaga, o'quvchilar daftarlariga zilzila vaqtda to'lqinlarning tarqalishi sxemasini chizishadi. Sxemada u zilzila o'chogani va epitsentrini ko'rsatadi.

O'qituvchi davom etadi:

«Er yuzida 500 dan ortiq seysmik stantsiya ishlab turibdi, ularda sayyoramiz yurak urishiga quloq solib turiladi.

«Moskva» seysmik stantsiyasida bo'lgan jurnalist stantsiyada ko'rganlarini mana shunday ta'riflaydi deb o'qituvchi qikoya qilib beradi

Lift bizni oqista er ostiga olib tushmokda. Mana 20.. 25... 30 metrga tushdik. Yuz metrlik uzun yo'lak, bir xilda yoruq, qammayoq jim-jit, o'ngda va chapda metall eshiklar. Ular orqasidagi xonalarda beton taglik ustiga sezgir asboblar — seysmograflar o'rnatilgan, ular kecha-kunduz Erning yurak urishini kuzatib turadi.

... Dunyoning narigi tomonida, Tinch okeanning janubi-qarbiy qismida Er po'stidagi zo'riqish toq jinslarining mustaqkamligidan oshib ketdi. qudratli silkinish ro'y berdi! To'lqinlar suvga tosh tashlagandek qamma tomonga juda tez tarqaldi. To'lqinlarning bir qismi er yuziga etib keldi. Zilzila ro'y berdi! Erning ichiga tomon tarqalgan to'lqinlar

dunyoning qamma tomoniga qalokatdan xabar tarqatdi. «Moskva» markaziy geofizika observatoriyasida sergak seysmograflar uni qayd qildilar. Tuproq millimetrning yuzlab ulushidan bir bo'lagiga silkindi, lekin shuni qam qayd qiluvchi maxsus qurilmalar zilzilani foto qoqozga yozib oldilar. Kechayu kunduz operator navbatchilik qiladigan markaziy pultda «Zilzila bo'layapti» degan elektr yozuv yondi va keskin qo'nqiroq observatoriyadagi tinchlikni buzib yubordi.

Ilmiy xodimlar va laboratoriyadagi laborantlar seysmogrammaning ma'nosini tezda aniqlashdi. Epitsentrgacha bo'lgan masofa, zilzila kuchi ma'lum bo'ladi. Ko'p vaqt o'tmasdan Sverdlovsk, Toshkent, Yujno-Saxalinsk va boshqa seysmik stantsiyalardan telegrammalar olinganda zilzila epitseshri qaerdaligi aniqlanadi.

O'qituvchi zilzila oldidan qayvonlarning qolati qanday bo'lishi, antiseysmik qurilishlar qaqida gapirib beradi. Darsni «Zilzila» degan kinolavqani ko'rsatish bilan yakunlash mumkin.

Uyga topshiriq: darslikdan o'qish. Zilzilalar tez-tez bo'lib turadigan rayonlarni kontur kartada belgilash.

4-dars. Vulkanlar, issiq buloqlar

Jiqozlar: Yarimsharlarnint tabiiy kartalari, vulkan va geyzer rasmlari.

Dars boshida o'qituvchi o'quvchilardan yoppasiga so'rash o'tkazadi. o'quvchilarga quyidagi savollarni berish mumkin: 1. Siz Erning qanday qobiqlarini bilasizq 2. Erning ichki tuzilishi seysmik metod bilan qanday anikdanadiq 3. Olimlar Erning ichki tuzilishini qanday maqsadda o'rganadilarq 4. Erning ichki qismlarini tashkil etgan qobikdar nimalari bilan xarakterlanadiq 5. Er po'stini qosil qilgan toq jinslari qosil bo'lishiga ko'ra qanday gruppalariga bo'linadiq

Yangi material tushuntirilayotgan vaqtda Erning ichiga chuqur tushgan sari toq jinslari qaroratining qanday ko'tarilib borishi va bu qodisaning sabablari, er kurrasidagi vulkanizm, lavaning qosil bo'lishi kabi masalalarga to'xtalib o'tilishi tavsiya qilinadi. Bu mavzu o'rganilayotgan vaqtda masalan, Vezuviy vulkanining 1794 yildagi otilishi to'qrisida parcha o'qib berish mumkin. qiziqarli xikoyalar aytish qam maqsadga muvofiqdir.

Er ertalabdan kechgacha dengiz to'lqiniga o'xshab tebranib turdi Neopolliklar uylaridan, chiqib, maydon tomon yugurib borishdi. qoronqida yugurishardi. Dastlabki daqiqalarda kishilar uylarimiz buzilib ketdi deb daqshat ichida tongni ortgirittdi. quyosh chiqqaqdan keyin uylarining butun ekanini ko'rishdi Uch kun o'tgandan keyin kechasi soat 11 da er yangidan silkindi. Bu juda daqshatli er osti silkinishi edi. Binolar yorildi, deraza oynalari jaranglab sinib tushardi, mebel aqdarilardi. Birdaniga osmon alangadan qizarib ketdi.

Vezuviy cho'qqisi yaqinida er yorildi va bu yorikdan lava oqib tushayotgani uylar tomidan ko'rinib turar edi. Sharsharaning shovillashiga o'xshagan bo'qiq, lekin kuchli gumburlash eshitilib turar edi. Kishilar oyokdari ostida qattiq er yo'kdek tuyulardi, qavoga alanga ko'tarilardi, qammayoqni daqshatli, ba'zan qech eshitilmagan shovqin-suron qoplagan. Tutun, alanga va but bulutdan qam balandga ko'tarilib, qamma tomonga tarqalar edi

Yarim kechadan keyin gumburlash ovozi to'xtadi, er silkinmay, toqlar tebranmay qo'ydi. Yonbaqirdan lava keng daryo kabi oqib tushardi, vulkandan tobora yangi lava oqimlari chiqib kelib turardi.

qadim zamonlarda vulkan otilishini kuzatgan kishilar uni qayri tabiiy kuchlar qosil qiladi deb qisoblaganlar. Masalan, qadimgi rimliklar olov xudosiga siqinganlar va bu xudoni

Vulkan deb ataganlar. Ular bu xudo er tagida yashaydi, uning jaqli chiqsa, qazablansa, qamma narsa titraydi, er ostidan olov va tutun otilib chiqadi deb o'ylaganlar. Shu sababli qadimgi rimliklar yonar toqlarni vulkan deb ataganlar. Bu nom qozirgi vaqtgacha sakdanib qolgan.

Shundan keyin o'qituvchi Vulkanlar to'qrisida, ularning yuzlab yillar davomida otilishi qaqida gapiradi. Isalko vulkani (Janubiy Amerikada Tinch okean soqilida) qaqida gapirgan ma'qul. Bu vulkan, shunisi bilan qiziqarliki, u kashf qilingandan buyon ikki yuz yil davomida to'xtovsiz qarakatda: qar 8 minutda suv buqi, toshlar, kullarni 300 m gacha balandga otib turadi, krateridan lava oqib chiqadi. Bu vulkan dengizchilarga qoronqi tropik kechalarda o'ziga xos tabiiy mayoq bo'lib xizmat qiladi, erigan lavadan tarqaladigan yoruqlik juda uzoqdan ko'rinib turadi.

Suv osti vulkanlarini, vulkan orollarining paydo bo'lishi va yo'qolib ketishini ta'riflaganda o'rta dengizda XVIII asr boshida vulkan otilishi natijasida qosil bo'lgan vulkan oroli qaqida gapirib berilsa, qiziqarli bo'ladi. Bu orolga italiyaliklar Yuliya deb, inglizlar Grexem, ispanlar esa Fernandes deb nom berishdi. Bu davlatlar orolning kimga qarashli zkanligi qaqida munozara olib borib bo'lganlaricha orol dengiz tagiga cho'kib ketdi. 1950 yilda u yangidan paydo bo'ldi va ko'p o'tmay yana yo'qoldi. 1952 yilda esa Tinch okeanida Yaponiya orollari yaqinida suv osti vulkani otilishidan orol paydo bo'ldi. Uning yuzasi suv yuzasidan 200 m baland ko'tarildi. Orol bir yildan bir oz ko'proq vaqtda suv ostiga cho'kib ketdi. Yana boshqa misollar keltirish mumkin.

So'ngra o'qituvchi balchiq vulkanlari deb ataluvchi vulkanlar qaqida gapirib, bunday vulkanning otilishini ko'rgan kishining ta'rifini o'qib beradi:

Tunda qo'y podasi so'ngan vulkan krateriga joylashdi.

Cho'ponlar bu joyni ilgaridan yoqtirib qolishgan edi, chunki bu erda qo'ylarni suqorish, podani izqirin shamoldan va dashtda izqib yuradigan och bo'rilardan yashirish mumkin edi.

qammayoq tim qoronqi, jim-jit, qamma uyquga ketgan edi. Birdaniga daqshatli gumburlab, er yorildi, baqaybat alanga to'satdan qoronqilikni yorib, butun kraterni qopladi, atrof tekislik uzoq-uzoklargacha yorishib ketdi. Shundan keyin er ichidan qudratli qora balchiq oqimi chiqib, yonbaqirdan tekislikka oqib tushdi.

O'qituvchi dars oxirida o'quvchilarga «Zilzilalar va vulkanizmning asosiy zonalar»ni ko'rishni va bunda ko'pchilik vulkanlarning Tinch okean qirqokdari qamda orollarida joylashganligiga e'tibor berishni taklif etadi. Bu erda Er po'stidagi yorikdar qammadan ko'p, bu yorikdardan er yuziga lava oqibchikadi.

«Chuqurga tushgan sari,— deb davom etadi o'qituvchi,— qar 100 m da qarorat 30 ga, ba'zi joylarda esa bundan qam ko'p ko'tariladi.

Shunday joylar qam borki, u erlarda er baqrining issikdik energiyasi unchalik chuqurda joylashmaydi. Vulkanlar otilib turadigan o'lkalarda buq va qaynoq suv favvorasi er yuzasigacha chiqadi.

Vulkanli rayonlarda elektr stantsiyalar turbinalarida ishlatish uchun buq olish mumkin bo'lgan narsa. Issiq suvdan yana xonalarni isitish uchun foydalanish qam mumkin.

Er osti issikdigidan keng foydalanilganda yoqilqi sarfini ancha qisqartirish mumkin, qavo ifloslanmaydi va aqoli punktlarida sanitariya sharoiti yaxshilanadi. Issiqxona xo'jaliklari va oranjeriyalarni rivojlantirish uchun cheksiz imkoniyatlar paydo bo'ladi.

O'qituvchi yangi materialni tugatgandan keyin o'quvchilarga savollarga javob berishni taklif qiladi.

Uyga topshiriq: darslikdan o'qib kelish. Kontur kartaga so'nmagan Klyuchi Sopkasi, Vezuviy vulkanlarini tegashli shartli belgilar bilan tushirish.

5-dars. Er relefining asosiy shakllari

Jiqozlar: yarimsharlar va tabiiy karta-lar, past, o'rta va baland toqlar tasvirlangan rasmlar, «quruklik yuzasining shakllari» diafilmi.

O'qituvchi darsni o'quvchilardan so'rashdan boshlaydi. Tekshirish uchun savol va topshirikdar: 1. Erning ichki tuzilishi qaqida so'zlab bering. 2. Vulkanlar otilishi sabablari to'qrisida gapiring. 3. So'nmagan va so'ngan vulkanlarni kartadan ko'rsating. 4. Vulkanlar otilib turadigan rayonlarda nima sababdan er qimirlashlar qam bo'lib turadiq 5. Seysmik rayonlarda binolar qanday quriladiq 6. Erning sekin tebranishi qaqida gapirib bering. 7. Er qimirlayotgan vaqtda kishilar uchun qaerda turish xavfsiz: qishtin uydami yoki ko'chadimiq

Shundan keyin o'qituvchi Er relefining asosiy shakllari— tekisliklar, toqlar, okeanlar chuqurliklari qaqida gapirib beradi. U toqlar va tekisliklar balandligiga «o'ra qanday farq qilishi to'qrisida gapirayotganida rasmlardan qam tushuntiradi.

Ural. Dashtdan asta-sekin qozoqiston past toqlariga o'tiladi. Ba'zi joyida yassi tekisliklar minglab kilometrlarga cho'zilib ketgan. Ba'zan minoraga, qaroyib qaykallarga, otlib jangchiga o'xshab ajoyib shakldagi toqlar va qoyalar uchrab turadi. Tepalik va toqlarni ayrim joylarda o'rmonlar qoplagan bo'lib, bu o'rmonlar go'yo dengizning tik kirqoqi kabi dashtga tushib keladi.

Ural tizma toqlari, ularning janubiy qismi qisobga olinmaganda, sayyoqni qech bir qayratga solmaydi. Bu erda tutun burqsib turgan vulkanlar qam, baqaybat toq va daralar qam yo'q.

Sovuq Kara dengizdan chalacho'l Kaspiy bo'yigacha meridian yo'nalishida cho'zilgan toq tizmalari o'ziga tutashib turgan Ural oldi va Uralorqasi bilan birga juda xilma-xil tabiatga qamda xo'jalikka ega bo'lgan keng o'lkadan iborat. qalin o'omonlar bilan qoplangan toqlar juda go'zal, daryolar sersuv, serqosil tuproqli dashtlar keng yoyilgan. Ural er baqri boyliklari beqisobdir.

Tizmalari baqaybat, qoyali, doim qorlar bilan qoplanib yotadigan, tik ko'tarilgan oppoq cho'qqilari go'yo zangori osmonga tegib turadigan qimolay torlari qindistonni Osiyoning boshqa qismidan ajratib turadigan baland toq chegarasini qosil qiladi.

qimolay toqlari o'zlarning baqaybatligi, go'zalligi va uluqvorligi bilan kishilar diqqatini juda qadim zamonlardan beri o'ziga tortib kelgan. Lekin kishilar bu toqlarning tabiati sirlarini ocha olmaganlar. Shu sababli kishilar bu toqlarning qayri tabiiyligi qaqida afsonlar to'qiganlar.

qimolay sanskrit tilida bo'lib (qimolayya) qorlar maskani degan ma'noni bildiradi. Bu toqlar qindistonning qaqiqiy Olimp toqlari bo'lib, ular qaqida afsona va ertaklar juda ko'p tarqalgan.

Bu toqli o'lkaning toq zanjirlari qarbdan sharqqa tomon 2,5 ming km ga cho'zilgan. Bu o'lka maydoni shuncha kattaki (650 ming km² ga yaqin), unda Frantsiya, Shveytsariya va Avstriyaga o'xshagan uchta davlatni joylashtirish mumkin.

qimoliy toqlari juda baland: uning qorlar bilan qoplanib yotgan 500 dan ortiq cho'qqisi Evropaning eng baland toqi — Monblanddan (4807 m) balanddir, 50 ta cho'qqisining balandligi 7 ming metrdan, 10 ta cho'qqisiz esa 8 ming metrdan oshadi. Bu cho'qqilar orasida butun Er kurrasining eng baland toqi — oppoq piramida salobatli ko'tarilib

turgan Jomolungma toqi bo'lib, balandligi 8848 metrdir.

qimolay toqlari o'z shakliga ko'ra qotib qolgan juda baqaybat to'lqinga o'xshaydi, u qind-Gang tekisligi tomonga asta-sekin pasayib boradigan uchta asosiy zina qosil qilib tushadi, shimolda esa Tibet toqlign tomonga faqat bitta, ancha qoya zina bilan tushadi. Bu to'lqinning eng yuqori qismida to'lqinning ko'pirgan yoliga o'xshab, Bosh qimolay zanjirining qorlar bilan qoplanib yotgan bir qancha eng baland tizmalari cho'zilgan. Ularning kengligi Markaziy qimoliy toqlarida 50—90 kilometr ga etadi.

Tabiiy kartalarda toqlar qar xil to'qlikdagi jigar rangga bo'yaladi. Toqlar qancha baland bo'lsa, ular shuncha to'q rangga bo'yaladi. Tekisliklar yashildan sariqqacha ranglarda beriladi. Okean va dengizlar qavo rang bilan ko'rsatiladi. Okean qancha chuqur bo'lsa, u shuncha to'qqa bo'yaladi. Yarimsharlar kartalarida deyarli barcha quruqlik materiklar yaqinida suv ostiga tushib ketgandek tuyuladi. Materiklarning suv bosgan qismlari materik sayozligi deb ataladi. Ularning chuqurligi qar xil bo'lishi mumkin. (o'qituvchi doskaga, o'quvchilar esa o'z daftarlariga materik sayozligi, materik yonbaqri va okean tagini (lojesini) tasvirolovchi sxematik rasm chizishadi.)

Ba'zi joylarda (masalan, Evropaning qariy qirg'okdari yaqinida) materik sayozligi keng bo'lib, uning eni bir necha yuzlab kilometr ga etadi. Boshqa joylarda esa (masalan, Amerikaning qariy qirg'og'ida) u qirg'oq bo'ylab ensiz cho'zilgan.

Materik sayozligidan keyin ancha tik materik yonbaqri keladi, u asta-sekin dunyo okeani tagiga qo'shilib ketadi. Okean tagi quruqlik yuzasiga o'xshab, ba'zi joylarda tekis, boshqa joylarda ko'tarilgan bo'lib toqlarga o'xshaydi, toqlarning tepalari bir xil joylarda suvdan qam ko'tarilib, orollarni qosil qiladi. Okean tagida chuqur botikdar va ulkan suv osti toqlari bor.

Dunyo okeanida chuqurligi 700 m dan ortiq bo'lgan 19 ta botiq borligi ma'lum. Bulardan 15 tasi Tinch okeanda, 2 tasi qind okeanida va 3 tasi Atlantika okeanidadir.

Dunyo okeanining eng chuqur joyi—Mariana botiqi (11022 m). Agar dunyoning eng baland cho'qqisi — qimolay toqlaridagi Jomolungmaning dengiz satqidan 8848 m ko'tarilganligini qisobga olsak, Er po'stidagi eng baland va eng past nuqtalar farqi deyarli 20000 m ga teng bo'ladi.

Shundan keyin o'qituvchi o'quvchilarga qiziqarli qikoyalar gapirib beradi.

Uyga topshiriq: darslikdan o'qish. Paragraf oxirida keltirilgan savollarga javob berish. 6-dars. Toqlarning paydo bo'lishi, Toqlarning o'zgarishi

Jiqozlar: yarimsharlar va tabiiy kartalarda, burmali va palaxsali toqlarning rasmlari. O'qituvchi bolalardan so'rab bo'lgandan keyin qikoyasini boshlaydi: «qozirgi vaqtda Kavkaz toqlari ko'tarilib turgan joylarda ko'p million yillar ilgari dengiz mavj urib yotgandi. Unda turli xil dengiz jonivorlari yashagan, daryolar quyilib turgan. Yuz minglab yillar o'tib ketdi. Dengiz tagida bu erga daryolar keltirgan qumlar, dengizning o'lgan qayvonlari skeletlari, chiqanokdari to'plandi. Cho'kindi jinslar juda sekinlik bilan yiqilib boradi: yiliga atigi 1 mm, 1000 yilda 1 m, 100000 yilda 100 m dan to'plangan. qozirgi Kavkaz toqlari joylashgan erlarda bundan bir necha million yillar ilgari qattiq er qimirlashlar boshlandi. Er po'sti Erning ichki kuchlari ta'sirida ba'zi joylarda yorildi, boshqa joylarda esa aksincha siqildi. Dengiz tagida yotgan cho'kindi jinslar qatlamlari yon tomondan siqilib, burmalar qosil kiddi va burmalar dengiz satqidan minglab metr baland ko'tarildi. (o'qituvchi ko'rgazmali bo'lishi uchun yupqa muqovali bir dasta daftarni qo'liga olib, uni ikki yon tomondan qo'li bilan siqadi. Daftarlar burmalar qosil qiladi.) Dengizning cho'kindi jinslar qatlamlari yon tomondan bosilganda burmalar qosil

qilib, toq tizmalari vujudga keladi. Burmali toqlarga Kavkaz toqlaridan tashqari qimolay va Kordilera toqlari qam misol bo'ladi. (o'qituvchi bu toqlarni devoriy kartadan ko'rsatadi va nomlarini sinf doskasiga yozib qo'yadi). Lekin Er kurrasida burmalar yorilib, palaxsalarga ajrab ketgan toqlar qam bor. Bunday toqlar burmali-palaxsali toqlar deb ataladi».

Yangi material tushuntirilayotgan vaqtda o'quvchilar daftarlariga uzilma, graben, gorstning qosil bo'lishi sxemasini chizib olishadi.

O'qituvchi davom etadi: «Er yuzida xammadan xam burmali-palaxsali toqlar ko'p uchraydi. bunday toqlarda burmalar bilan birga uzilmalar, grabenlar, gorstlarni ko'rish mumkin. Bunday toqlarga, masalan, Tyanshan, Oltoy va boshqa toqlarni kiritsa bo'ladi. Burmali tog'larda, chunonchi Kavkaz toqlarida uzilma, graben va gorstlar qam uchraydi, lekin ular juda kam bo'lib, onda-sonda ko'zga tashlanib qoladi. Bu erda toq tizmalarining ko'pchiligi burmali toqlar, shuning uchun ularni burmali toqlar deyiladi».

Shundan keyin tashqi kuchlar ta'sirida toqlarning emirilishi qaqida suqbat qilinadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning tabiatshunoslik darslarida olgan bilimlariga tayanadi.

O'qituvchi darsda o'rganilganlarga yakun yasab, shunday deydi: «Shunday qilib, Erda tashqi va ichki kuchlar qarakati mavjud. Ichki kuchlar Er qa'rida ro'y beradigan jarayonlar qosilasidir. Ichki kuchlar ta'sirida Er po'stining asriy tebranishi, toqlarning paydo bo'lishi, vulkanlar otilishi, er qimirlashlari, turli xil magmatik va metamorfik toq jinslarining vujudga kelishi ro'y beradi.

quyosh energiyasi, oqirlik kuchi (qulash, muzliklar qarakati va boshqalar), organizmlar faoliyati tufayli vujudga keladigan tashqi kuchlar ta'sirida Er yuzida yoki Er po'stining yuza qismida nurash, er osti suvlari, dengiz to'liqini, muzliklar va shamol ishi ro'y beradi. Bular natijasida toq jinslari emiriladi, bir joydan boshqa joyga olib borilib yotqiziladi».

Uyga topshiriq: darslikdan o'qish, savollarga javob qaytarish, kontur kartaga burmali va burmali-palaxsali toqlarni tushirish.

7-dars. Tekisliklarning qosil bo'lishi va o'zgarishi

Jiqozlar: Tabiiy kartalari, tekisliklar, tundra, tayga, cho'l erlar rasmlari.

Agar kuzgi ekskursiya tekislikda o'tkazilgan bo'lsa yangi materialni tushuntirishni shunday boshlash kerakki, bunda bolalar mazkur ekskursiyada ko'rganlarini (rel'efning mayda shakllari, daryo oqimi xususiyatlari va qokazolarni) eslasinlar. O'qituvchi yassi va sertepa tekisliklar rasmlarini ko'rsatadi qamda suqbat davomida bu tekisliklar nimasi bilan bir-biridan farq qilishi aniqladanadi. Shundan keyin o'qituvchi devorga tundra, tayga, dasht, cho'llarning rasmini osib qo'yadi va bu rasmlarda tekisliklar tasvirlanganligini tushuntiradi. Lekin birinchi rasmda tundra, ikkinchisida tayga, uchinchisida dasht, to'rtinchisida cho'l tasvirlanganligini aytadi. Bunday tushuntirish juda muxim, chunki oltinchi sinfning ko'ggchshshk o'quv-chilari nimagadir «Tekisliklar» mavzusi o'rganilgandan keyin tekislik deganda dashtni tushunishadi. Shundan keyin o'qituvchi xrestomatiyadan yassi va sertepa tekisliklar ta'riflangan bir necha parchani qo'yib beradi.

Uy balandroq joyga qurilgan, derazadan keng tekislik yaqqol ko'rinib turibdi. Oldinda tepa tagida kumushrang daryo jilolanib oqyapti, uning nariyoqidagi tepa ustida qishloq ko'zga tashlanadi, uni daraxtzorlar o'rab olgan. Ung tomonda ufkdagi birin-ketin joylashgan ikkita qishloq yaqqol ko'rinib turibdi. Bu qishlokdardan daryoga tomon qiya keng tekislik tushib kelgan. Chap tomonda esa o'rmon qoplagan tepalar uzoqqa cho'zilib ketgan. Men sertepa tekislikning ajoyib manzarasini maroq bilan kuzatdim ...

Ketayotganlar ko'z o'ngida bepoyon tekislik paydo bo'ldi, tekislikda qator-qator tepalar ko'tarilgan. Bu tepalar bir-birlari bilan tutashib ketib, shirni qosil qilgan. qir yo'ldan o'ng tomonda ufqqacha cho'zilib ketib, uzokdagi qizqish quborda ko'zdan qoyib bo'ladi, qancha yo'l yursang qali qir-ning qaerdan boshlanib, qaerda tugaganini tasavvur qilish qiyin. Ufkda quyosh paydo bo'ldi va asta olamga nur socha boshladi. Avval uzoqrokda er yuzasi sarqish bo'lib yorishib ketdi, bir daqiqadan so'ng yaqinroq erlarga qam oftob nurlari tushdi, so'ng o'ng tomonni va tepalarni qam quyosh nurlari yoritib yubordi va birdaniga butun tekislik tongi yarim soyadan qoli bo'ldi, o'tlarga tushgan shudring jilvalana boshladi...

Birinchi marta kelgan sayyoqni, relefning tep-tekisligi qayratga soladi. Bu er tep-tekis, juda katta masofada relefda sezilarli bir o'zgarishni ko'rmaysiz, bu erda tepalar qam, jarlar qam yo'q.

Faqat turli kattalikdagi ko'pdan~ko'p ko'llar bir xil manzarani bir oz o'zgartiradi.

Ko'llarning qirkoqlari atrofdagi tekislikka asta-sekin tutashib ketgan. Bu erda sayyoq diqqatini-dashtlarda uchraydigan ko'pdan~ko'p qayinzorlar tortadi, ular uzovda bir-birlari bilan go'yo tutashib ketib, tutash o'rmonlar qosil qilgandek tuyuladi.

O'qituvchi o'quvchilarga tekislikni qosil qilgan toq jinslari qaqida gapirib beradi, ularga gil, qum, yirik qum, shaqalni ko'rsatadi va ekskursiya. O'tkazilgan joyni (yonida to'xtab o'tilgan ochilib qolgan erni) eslashni so'raydi qamda bolalarga tekisliklarda toq jinslari toqlardagi kabi qiya emas, balki gorizont (tekis) yotadi, deb eslatib o'tadi.

O'qituvchi davom etadi,— «Tekisliklar dengaz satqidan turli balanddikda, ya'ni qar xil absolyut balaqddikda yotadi. Dengiz satqidan 200 m dan ortiq bo'lmagan balanddikda joylashgan tekisliklar pasttekisliklar deyiladi. Tabiiy kartalarda bunday tekisliklar yashil rangga bo'yaladi. (o'quvchilar kartadan Kaspiybo'yi, Amazonka, qind-Gang past tekisliklarini qidirib topadilar va ulardan qaysi biri dengiz satqidan past joylashganini aniqlaydilar qamda kontur kartada ular tyumini yozib qo'yadilar.)

Absolyut balandligi 500 m dan oshadigan yana qam balandroq tekisliklar yassi toqliklar deb ataladi». (o'quvchilar kontur kartalarida yassi toqliklarini belgilab qo'yishadi).

Bunda o'qituvchi yordam berib turadi.

O'qituvchi aytilganlarni yakunlab, shunday xulosa qiladi; «Tekisliklar, pasttekisliklar va baland tekisliklar bo'lishi mumkin. Ular bir-birlaridan okean satqidan qanday balanddikda joylashgani bilan farq qiladi. Tabiiy kartalarda bu tekisliklarning okean satqidan qanday balandlikda joylashgani ranglar bilan belgilanadi. Ularning balandligini qar bir tabiiy karta va globusda beriladigan balandlik shkalasidan anikdash mumkin. Dengiz tagining ko'tarilishi natijasida vujudga kelgan tekisliklarni birlamchi tekisliklar deyiladi».

Shundan keyin o'qituvchi toqlarning emirilishi (qozoqiston past toqlari), lavaning oqib chiqishi (O'rta Sibir yassi toqligi), oqar suvlar faoliyati natijasida (qind-Gang va boshqa pasttekisliklar) qosil bo'lgan tekisliklarni tushuntiradi, o'qituvchi Erning tashqi kuchlari ta'sirida tekisliklarning qanday qilib asta-sekin o'zgarishi, jarlarning qanday qosil bo'lishi, kishilar jarlarning o'sishiga qarshi qanday kurash olib borishlari qaqida so'zlab beradi. Shundan keyin u tekisliklarning shamol ishi ta'sirida o'zgarishi chang bo'ronlari qamda ularning xo'jalikka etkazadigan zarari to'fisida gagshradi.

o'quvchilar devoriy rasmlardan dyunalar va barxanlarni ko'rib chiqqanlaridan keyin bu qum do'nglarining qarakati sabablarini tushuntirish kerak. Bunda o'qituvchi doskaga rasmlar chizib, tushuntirishda - ulardan foydalansa bo'ladi.

Dars oxirida bolalar karta bilan ishlaydilar va quyidagi savollarga javob beradilar: 1. Kartaning qaerida birlamchi tekisliklar belgilanganq 2. qind-Gang pasttekisligi qanday qosil bo'lganq 3. Tekisliklar suv oqimlari ta'sirida qanday qilib emiriladiq 4. Oqar suvlar o'simlik bilan qoplangan yonbaqirlarni nima sababdan yuvib ketmaydiq
Uyga topshiriq: darslikdan o'qib kelish.

8-dars. Er osti boyliklarini va er yuzasi relefini muqofaza qilish

Jiqozlar: Tabiiy karta erlar rekultivatsiyasi (qayta tiklanishi) tasvirlangan rasmlar yoki jurnallardan qirqib olingan suratlar.

Bu darsda mamlakatimizda er osti boyliklarini va er yuzasi relefini muqofaza qilish yuzasidan amalga oshirilayotgan tadbirlar qaqida, foydali qazilmalar qazib olinayotganda er yuzasi relfining o'zgarishi to'qrisida gapirib berish, qayta tiklangan erlar tasvirlangan rasmlar va fotosuratlarini ko'rsatish kerak. qozirgi vaqtda vaqtli matbuotda bu masalaga katta e'tibor berilmokda, shu boisdan o'qituvchi tegishli materialni osongina topishi va uni darsda o'qib berishi mumkin. o'qituvchi qozirgi vaqtda er yuzasini muqofaza qilish ayniqsa muqim aqamiyat kasb etayotganini aytadi, chunki yangi shaqarlar qurilishi va eskilarining kengayishi, yo'llar, sanoat korxonolari qurilishi natijasida qaydaladigan (ekinzor) erlar yil-dan-yilga qisqarib boryapti deydi. Mamlakatimizda qozirgi vaqtda qar bir jon boshiga 1 ga dan kam qaydaladigan er to'qri keladi. Agar o'qituvchi o'z o'lkasida va qo'shni rayonlarda er osti boyliklarini qamda er yuzasini muqofaza qilinayotganiga misollar keltirsa, juda yaxshi bo'ladi.

Uyga topshiriq: darslikdan o'qish va savollarga javob qaytarish.

9-dars. Umumlashtiruvchi dars Gidrosfera

1-dars. Gidrosfera qaqida tushuncha. Dunyoda suvning aylanma qarakati

Jiqozlar: Yarimsharlarning tabiiy kartalari, globus, dengiz va okeanning rasmlari.

O'qituvchi darsni qikoyadan boshlaydi: «Suv — Erdagi eng ajoyib mineral. Uning ajoyibligi shundaki, u xilma-xil qayot shakllarining rivojlanishi qamda o'sishi uchun sharoit yaratadi. Suv massalari quruqliklar ikdimiga qulay ta'sir ko'rsatadi, suv oqimlari sayyoramiz er yuzasini o'zgartiradi; suv bir joyda toqlarni emirsa, boshqa joyda keng tekislik-larni qosil qiladi. Bolalar, shunday pasttekisliklarni kar-tadan toping. Eqtimol, sayyoramiz suv mavjudligi uchun qam quyosh sistemasining boshqa sayyoralaridan farq qilar.

Suvni boshqa narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Olamda bu mineralning o'rnini bosadigan boshqa modda yo'q. Insoniyat yildan-yilga tobora ko'p chuchuk suvdan foydalanmokda.

Erda suv juda ko'p. Globus va yarimsharlar kartasiga bir nazar tashlang. Sayyoramiz yuzasining katta qismi suv qobiqi bilan qoplangan. Er kurrasi maydonining 71%i suvdan iborat. qurukdik yuzasini daryo va jilqalar go'yo qalin to'r kabi qoplab olgan. Bundan tashqari, quruqlikda ancha suv ko'llarda va inson bunyod etgan suv omborlarida, botqoqlik qamda muzliklarida, er ostida to'plangan; atmosferadagi suv buqlarining salmoqi uncha katta emas. Sayyoramizdagi suvning katta qismi (98,3% dan ortiqroqi) okean va dengizlarda to'plangan. qurukdikdagi suv salmoqi 2% dan kam. Insoniyat

o'zining barcha ehtiyojlarida (sanoatda, qishloq xo'jaligi, maishiy xizmatda) ana shu 2 % suvdan foydalanadi.

2% suv—bu uncha ko'p emas. Buncha suv insoniyat uchun bir necha yilgagina etar edi. Lekin shunga qaramasdan bizning daryo va ko'llarimizda suv yildan-yilga kamayayotgani yo'q. Nima uchun bizning chuchuk suv qavzalarimizdagi suv bunday tugamaydigan bo'lib qolganq Bunga quyosh sababchi ekan. quyosh nurlari ta'sirida tabiatda suvning aylanma qarakati ro'y beradi. (o'quvchilar daftarlariga «Suvning tabiatda aylanib yurishi» deb sarlavqa qo'yishadi va o'qituvchining sinf doskasiga chizgan sxemasini - 5-rasmni chizib olishadi. O'qituvchi suvning aylanib yurishi qaqida gapyrib beradi.)

Shunday qilib, suvi sho'r va ichish uchun yaramaydigan okeanlar kuyosh tufayli tabiatga chuchuk suv etkazib beradi».

Bu darsda o'quvchilar diqqatini suvning tabiatda aylanib ko'rishi natijasida litosfera, gidrosfera va atmosfera o'rtasida o'zaro aloqalar bo'lishiga albatta qaratish zarur.

RASM

5-rasm. Tabiatda suvning aylanma xarakati sxemasi

2-dars. Dunyo okeani. Dunyo okeanining qismlari

Jiqozlar: globus, yarimsharlarning tabiiy kartalari.

O'qituvchi yangi materialni o'rganishni boshlar ekan, Dunyo okeani qozirgi vaqtda to'rt qismga bo'linadi, deydi. Shundan keyin bolalarga kartadan okeanlarni topishni va ular nomining kelib chiqishini tushuntirib berishni buyuradi. o'qituvchi chekkadagi va ichki dengizlar qaqida, darslik tekstida eslatib o'tilgan qo'ltikdar, bo'qozlar, kanallar to'qrisida gapirib beradi. Shundan keyin o'qituvchi geografik nomlarni doskaga ustun qilib yozadi (o'quvchilar daftarlariga yozib olishadi), nomlarning kelib chiqishini imkon bo'lsa tushuntiradi va ularni geografik kartadan ko'rsatadi. O'quvchilar bu ob'ektlarni atlasdan topishadi.

O'quvchilar geografik nomlarni yaxshi eslab qolishlari uchun ular qakida biror xarakterli narsani gapirib berilsa va bu geografik ob'ektlarni devoriy rasmlardan ko'rsatilsa yaxshi bo'ladi. Dengizlar goq sokin bo'ladilar, goqida jo'sh urib jonlanib ketadilar.

Bunday vaqtlarda osmonni qora bulutlar qoplaydi, shamol quvullaydi va bir vaqtlar yarqirab jimirlab turgan suv yuzasi qoramtir tusga kiradi. Ketma-ket to'lqinlar qirqoqqa kelib uriladi va butun suv yuzini ko'pirgan to'lqin yollari qoplab oladi. Dengizda tasodifan paydo bo'lib qolgan qayiq to'lqinda tebranib, uni dengiz o'z qa'riga olgandek ko'zdan qoyib bo'ladi va yana birdaniga to'lqinlanayotgan suv ustida paydo bo'ladi... qizil dengiz ta'rifi xrestomatiyada berilgan. Uni o'qituvchi gapirib beradi.

... Dengizchilar qizil dengiz qaqida gapirar ekanlar, uni Er yuzidagch eng issiq va eng sho'r dengiz deyishadi. Bunga ishonsa bo'ladi. Biz suv qaroratini o'lchaganimizda u shunchalik yuqori ediki, unga odamning ishongisi kelmasdi. U 35,50 S edi.

Ana endi qavoning qanchalik issiq ekanligini tasavvur etsa bo'ladi. Eqtimol, ellik daraja bo'lgandir. Kemaning palubasi metalldan yasalgan. Unga quyosh nurlari kun bo'yi tik tushib turadi. Bir parcha bo'lib ko'ringan quyoshning o'tkir, cho'qdek nurlari metall palubani juda qizdirib yuboradi. Paluba oftobda shu qadar qizib ketadiki, uning tafti poyabzaldan o'tib, oyoqni kuydiradi. Shu sababli maxsus poyabzalda yurishga to'qri keladi. qar birimiz taxtadan poyabzal tag charmidek bo'lak qirqib olib, uni qaysh bi-lan oyoqqa qattiq boqlab qo'yardik. Yurganimizda bu taxtachaning taraq-turuqi paradda

ketayotgan ot tuyoqidan chiqadigan tovushni eslatadi. qar narsa bo'lsa qam, bunday qilganimizdan oyoqimiz kuymas edi.

...qizil dengizda suzayotganimizga, mana, olti kun bo'ldi. Ufqni chang bosgan, osmon oqish tusda. Suvning tafti nafasni qaytaradi. Kema palubasi olov ustida qizib yotgan tovani eslatadi. Bu dengizni qizil dengiz deb atashlariga sabab shuki, kuchli shamol turganda dengizning qar ikkala soqilidagi cho'ldan qizil chan-to'zon ko'tarilib, butun ufqni qoplaydi. Bunday paytlarda dengiz qaqiqatan qam qip-qizil tusga kiradi. qirgokdarida jon zoti ko'rinmaydi.

O'qituvchi o'rta dengizni ko'rsatar ekan, uning soqillarida Er yuzasidagi eng qadimgi davlatlar — Gretsiya, Rim, Misr vujudga kelganligi qaqida gapirib beradi. (O'quvchilar bu davlatlarni tarix darslarida o'rganishgan).

O'qituvchi dars yakunida o'quvchilarga sinf doskasiga ustun tarzida yozilgan barcha geografik nomlarni kontur kartaga tushirishni taklif qiladi.

Uyga topshiriq: darslikdan o'qish. Paragraf oxirida berilgan savollarga javob qaytarish.

3-dars. Okeandagi quruqlik

Jiqozlar: Yarimsharlarning tabiiy kartalari, globus.

O'qituvchi darsni quyidagi savollarni berib, o'quvchilarning bilimini tekshirishdan boshlaydi: 1. qaysi materikni to'rtgala okeanning dengizlari yuvib turadi? 2. qaysi qit'ani qamma okeanlar Shimoliy Muz okeanidan boshqa shimol tomondan urab turadi? 3.

Baltika dengizidan dunyo aylana sayoqatga chiqing. qanday okeanlar, dengizlar, qo'ltiklar, bo'qozlar va kanallardan o'tasiz? 4. Osiyo qirgokdari yaqinida qaysi chekkadagi va qaysi ichki dengizlarni bilasiz? 5. Madagaskar orolini materikdan qanday bo'qoz ajratib turadi? 6. Suvaysh va Panama kanallarining geografik koordinatalarini ayting.

Shundan keyin o'qituvchi o'quvchilarga tabiiy kartadan qind okeaniga ta'rif berishni taklif qiladi.

Yangi materialni o'rganishni darslik bilan ishlashdan boshlash mumkin. O'quvchilar darslik tekstidan foydalanib, orol va yarimorollarga ta'rif berishadi qamda orollar qosil bo'lishiga ko'ra qanday uch turga bo'linadi, degan savolga javob qaytarishadi. o'qituvchi orol va yarim orollarni qisqacha tasvirlab, ularni kartadan ko'rsatadi.

Ish quyidagi tartibda bajariladi: O'qituvchi doskaga geografik koordinatalarni (masalan, 700 sh. k. 400 q. u.) yozib qo'yadi va o'quvchilardan bu nuqtaning qaysi orolda joylashganini so'raydi. O'quvchilar kerakli nuqtani atlas kartasidan qidirishadi (masalan, Grenlandiya orolidagi nuqtani) va orolning nomini kontur kartalariga yozib qo'yadilar.

Shundan keyin o'qituvchi mazkur orol bilan yarimorol qaqida gapirib beradi.

Grenlandiya oroli qaqida gapirganda, chunonchi, uning dunyodagi eng katta orol ekanligini aytish kerak. Bu orolga Angliya, Frantsiya, Italiya, Gollandiya, Belgiya va Norvegiyani birgalikda joylashtirish mumkin. Grenlandiyani qoplab yotgan muz qalqonining qalinligi o'rta qisobda 2300 m ga teng. Grenlandiya muzliklari qarakat, tezligiga ko'ra o'ziga xos «chem-piodalardir. Ular sutkasiga 36 m gacha siljiydi. Muzlar oroldan okeanga surilib tushib, o'ziga xos suzib yuruvchi muz palaxsalari — aysberglarni qosil qiladi. Aysberglar go'zal bo'ladi. Ichki qismi qavo rang tovlanuvchi, usti esa ko'zni qamashtiradigan darajada oq tusdagi bu muz palaxsa go'yo kemalar karvoni kabi kechayu kunduz orol qirgokdari yaqinida sokin suzib yuradi. Lekin qar bir aysbergda daqshatli xavf yashirinib yotadi. Tagi erib qolgan baqaybat muzlar qo'qqisidan

to'ntarilib ketib, eqtiyotsizlik bilan unga yaqinlashib qolgan kemalarni gugurt qutisidek qavoga irqitib yuborgan qollar qam bo'lgan....

Chunonchi, 1893 yil iyun oyida Kanadaning «Portsiya» nomli kemasi aysberg yonidan suzib borar edi. Passajirlar aysbergni yaqinrokdan tomosha qilishni istab, kapitanni kemani aysbergning biriga yaqinlashtirishga ko'ndirdilar. «Portsiya» aysbergdan 70 m masofada to'xtadi. Suzib yuruvchi muz toqining uzunligi chorak kilometr, balandligi esa 60 m edi.

quyoshda yaltirab turgan muz toqi kemadan birdaniga tez uzokdasha boshladi va shu vaqtda kema qattiq silkinib ketdi. qayratda qolgan matrosalar bilan passajirlar kema baqaybat muz ustiga chiqib qolganini va qar bir sekund sayin suv yuzasidan tobora baland ko'tarilib borayotganini ko'rdilar.

Aql bovar qilmaydigan qodisa ro'y berdi. Aysbergning vaqt-vaqti bilan to'ntarilib turishi ma'lum. Kema aysbergning suv ostidagi teshigiga kirib qolgan bo'lib, bir necha daqiqa aylanayotgan muz toqining ustida turib qoldi. So'ngra aysberg bir qalqideda yana avvalgi qolatiga qaytdi, kema esa suvga qaytib tushdi. Kapitan kemani bir amallab bu joyga eng yaqin portga olib keldi.

Islandiya qaqida so'zlab berilayotganda u erda geyzerlar ko'pligi va geyzerlar suvidan issiqxonalarni isitishda foydalanilishi qaqida gapirish mumkin. Orolida yil bo'yi banan va ananaslar pishib etiladi.

Uyga topshiriq: darslikdan o'qish, paragraf oxirida berilgan savollarga javob qaytarish.

4-d a r s. Okean suvining qarorati va sho'rliigi

Jiqozlar: globus, va yarimsharlarning tabiiy kartalari. O'qituvchi o'quvchilar bilimni tekshirib bo'lgandan keyin ularga darslikni mustaqil ravishda o'qib chiqishni va o'qib chiqilganlarning planini daftarga yozishni topshiradi. Bu ishga taxminan 10 - 15 daqiqa ajratiladi. So'ngra o'qituvchi bolalardan o'qiganlarini gapirib berishni so'raydi. O'qituvchi va boshqa bolalar javob berayotgan o'quvchi javoblarini to'ldirishadi. Yordamchi savollar berib turadi.

5-dars. Okeanda suvning qarakati

Jiqozlar: Yarimsharlarning tabiiy kartalari, «Dengazda dovul», «Suv ko'tarilishi», «Suv qaytishi» rasmlari.

Dars boshida o'qituvchi o'quvchilar bilimni tekshiradi. quyidagi savollarni beradi:

1. qaysi dengiz en chuqurq 2. qaysi dengizning suvi sho'rroq: Azov dengizini suvimi, Barents dengizini suvimi 3. Kaspiy dengizining qaysi qismi qishda muzlaydiq Barents dengizi muzlaydimiq 4. Okeanda suv qarakati qanday o'zgaradiq 5. qora va Kaspiy dengizlarining eng chuqur joyi necha metr 6. qaysi dengizning suvi eng iliqq (O'quvchilar 3- va 5-savollarga kartadan foydalanib javob berishadi.) O'qituvchi yordam beradi.

O'qituvchi yangi materialni tushuntirishdan oldin o'quvchilardan, kim dengizni ko'rgan, deb so'raydi va o'z taassurotlarini so'zlab berishni taklif qiladi. O'qituvchi suqbatga yakun yasalar ekan, Dunyo okeani yuzasi qech qachon jim turmaydi, deydi. U o'z so'zini tasdiqlovchi quyidagi parchani o'qiydi:

Suv yuzasi qech erda tinch turmaydi.

qamma narsa qarakatda, shu jumladan bizning kema qam suv betida goq ko'tarilib, goq pasayadi, qalqib, yoniga oqadi, chor atrof to'lqinlanib tebranadi va bepoyon dengizning biror joyi qam bir zum bo'lsada tinim bilmaydi. Olisdagi to'lqinlar kichik-kichik

tepalarni eslatadi va ularning yoli u yokdan bu yoqka yugurib, oftobda oq shoyi kabi yaltiraydi. To'liqin kemamizga yaqinlashgan sari kattalashadi va kengayadi, suvdan baland ko'tariladi, uning ustida oq yoli paydo bo'ladi. U jo'shqin suv oqimi kabi ko'pik sachratib, suv tspasidan ajrab chiqadi. To'liqin yolineing yuqori qismini shamol uchirib, suv tomchilarini betga keltirib uradi, qolgan qismi esa to'liqin bilan birga tezda pasayadi. Biz qozirgina ko'rgan daqshatli suv «toqi» o'rnida suv vodiysi paydo bo'ladi. So'ngra ko'z o'ngimizda yana yangi to'liqin ko'tariladi.

O'qituvchi okean yuzasida to'liqinning qanday paydo bo'lishini tushuntirish uchun taqsimchaga suv quyadi va bir o'quvchiga suvga puflashni buyuradi. Suv yuzasida dengiz to'liqlariga o'xshagan, lekin ulardan juda kichik mayda to'liqlar qosil bo'ladi.

O'qituvchi quyidagicha xulosa chiqaradi: «Okeanda o'qtin-o'qtin kuchayadigan shamollar suv yuzasiga urilib, balandligibir necha metr keladigan to'liqlar qosil qiladi. Dovul turganda to'liqlar ayniqsa katta bo'ladi. qora dengizda to'liqinning zarbi 1 m2 yuzaga 25 t gacha etadi: qar qanday inshoot qam bunday zarbga chidash beravermaydi, Kavkaz soqillari—mashqur kurortlar va yirik portlar joylashgan o'lka. Shu sababli bu erdagi qirgoqlarni to'liqlardan muqofaza qilish ayniqsa muqim aqamiyatga egadirq Shunday keyin o'qituvchi okean oqimlari va ularni o'rganish qaqida gapirib beradi. O'quvchilar iliq va sovuq oqimlarning qosil bo'lish sabablarini tushunib olganlaridan keyin kontur kartaga qizil qalam bilan iliq oqimlarni, ko'k qalam bilan sovuq oqimlarni chizib ko'yishadi.

So'ngra o'qituvchi okeandagi suv ko'tarilishi qodisasi qaqida so'zlab beradi: «Sizga ma'lumki, dengiz suvi qech vaqt tinch turmaydi, goq salgina seziladigan, goqo balandligi 10 m dan ortadigan to'liqlar qirgoqqa keng urilib turadi. qirgoq to'liqini doimiy emas. Shunday vaqtlar qam bo'ladiki, dengiz bir necha kunlab tinch turadi va to'liqlarning balandligi bor-yo'qi bir necha sm ga etadi. Ba'zan esa dengiz birdaniga mavj ura boshlaydi, to'liqlar qayqirib, ko'pirib, qirgoqqa kelib zarb bilan uriladi. Lekin dengiz va okeanlarda boshqacha to'liqlar qam bo'ladi. Ular qar kecha-kunduzda qirgoqqa ikki marta bostirib kelib, ikki marta qaytadi, shu bilan birga bunday to'liqlar jadval bilan bo'lgandek muayyan bir vaqtda takrorlanib turadi. Bu to'liqlar qalqish to'liqlari deyiladi. qalqish to'liqlari kelganda dengizda suv ko'tariladi, qaytganda esa suv pasayadi. (o'qituvchi «Suv ko'tarilishi», «Suv qaytishi» rasmlarini krsatadi.)

Dengiz suvining ko'tarilishi katga energiya manbaidir, uning qudrati sayyoramizdagi barcha daryolar quvvatidan taxminan uch baravar katta. Mamlakatimizda suv qalqishi elektr stantsiyasi (PES) tok beryapti, bu elektr stantsiyasi Kola yarim-orolidagi qo'ltikdardan birida qurilgan. qo'ltiq dengizdan to'qon bilan to'silgan. Suv ko'tarilganda qo'ltikdagi suv satqi bir necha metrga ko'tariladi. Suv qaytgan vaqtda qo'ltiqdan dengizga tomon shiddat bilan oqib, yo'dda elektr stantsiya turbinalarini qarakatga keltiradi.

Okeandagi eng daqshatli to'liqlar sunamilardir. Ular asosan dengizda zilzila bo'lib, dengiz tagining ayrim joylari cho'kkanda yoki ko'tarilganda paydo bo'ladi.

Kuril orollari qirgoqlarida sunami to'liqlarining balandligi 1 m dan 7 metrgacha etadi. Tsunami qirgoqqa kelib urilishidan oldin, dengiz go'yo zarb bilan kelib urilishga kuch to'playotgandek avval bir oz chekinadi. Bu qodisa xavf yaqinlashayotganligidan darak beradi. Kamchatka yarim oroli soqillarining ba'zi joylarida dengiz 100 m ga va qatto 300 m ga chekinadi, dengiz tagi ochilib qoladi. Gidrometeorologiya xizmatining kuzatuv

postlari dengiz suvining birdan bunday keskin pasayib ketishini qayd qilib, sunami yaqinlashayotgani to'qrisida aqolini o'z vaqtida ogoqlantiradi. Barcha kishilar bunday tasodifiy qodisani qisobga olib, ilgaridan maxsus tayyorlangan planga ko'ra xavfli joylardan baland erlarga ko'chiriladi.

Eng baland sunami to'lqinlari Tinch okeanda kuzatiladi. Ular soqilda quruqlik ichkarisiga taxminan 1 km gacha kirib boradi. Sunami to'lqinlari Yapon, Aleut, Gavay, Filippin, Kuril orollari va qisman Kamchatka yarim orolida kuzatiladi.

Tsunamini kuzatgan bir kishi uning bostirib kelishini shunday tasvirlaydi:

qirchoq to'lqinining shovqini birdan jimib qoldi va suv dengizning ancha ichkarisiga qaytib ketib, dengiz tagi ochilib qoldi. To'satdan ro'y bergan bu jimlik orolliklarga falokat yaqinlashayotganligidan aniq darak beradi. qaqiqatan qam sirena yangraydi, radiodan xavfni bildiruvchi signal beriladi. Endi imirsirash yaramaydi, uyni tashlab, tezroq tepaga, toqqa chiqish kerak. Sunami kelyapti!

Tepasini qordek oppoq ko'pik qoplagan suv devori port inshootlariga yopirilib kelyapti. Tsunami oldindan aytib berish uchun maxsus stantsiyalar tashkil etilgan, ularda dengiz zilzilasi ziyraklik bilan kuzatib turiladi. Bunday stantsiyalarning xodimlari yaqinlashib kelayotgan xavf to'fisida aqolini bir necha soat ilgaridan ogoqlantirib turadilar.

Uyga topshiriq: o'qituvchi bir guruq o'quvchilarga to'lqinlar va okean oqimlari qaqida, boshqa guruq o'quvchilarga esa suv qalqishi qamda sunami to'qrisida qikoya o'qib beradi va ularga rasm chizib kelishni topshiradi.

6- d a r s. Dunyo okeanining boyliklari

Jiqozlar: yarimsharlarning tabiiy kartasi, dengiz va okeanlarning o'simliklari qamda qayvonlari tasvirlangan rasmlar.

O'qituvchi bolalar bilimini tekshirib bo'lganidan keyin quyidagilarni so'zlab beradi: «Dunyo okeanida juda ko'p mikdorda turli qayvonlar yashaydi. Bularning ko'pchiligi ko'p asrlar davomida insonga ozuqa bo'lib xizmat qilib kelmokda. Inson juda qadim zamonlardan buyon dengiz va okeanlardan baliq qamda qayvonlarni; umurtqasiz qayvonlar — qisqichbaqa, omer, krevetka, langusta qamda qar xil iste'molbop mollyuskalarni ovlab keladi. Italiyada va O'rta dengiz bo'yidagi boshqa mamlakatlarda aqoli iste'mol qiladigan ozuqaning yarmidan ortiqini ustritsalar, kalmarlar, yolqonoyokdiklar va karakatitslar tashkil etadi. Yaponlar uchun yolqonoyoq yoki kalmarning qovurilgan go'shtidan mazaliroq ovqat bo'lmasa kerak. qizil suvo'tdan qimmatbaqo maqsulot bo'lgan agar-agar — dildiroq modda olinadi. Undan elimshoq (jele), konfet, marmalad, qiyom, muzqaymoq va boshqa maqsulotlar tayyorlashda foydalaniladi.

Okean va dengizlarning eng xavfli yirtqich qayvoni — akulalar. Baliqchilar bu yirtqich qayvonni so'rganlarida ular qornidan juda xilma-xil buyumlar topishadi. Grenlandiya yaqinidan tutilgan bir akula qonidan palto astari va tyulenning yarim tanasi topilgan.

Akulalar uchun xos odat nima to'g'ri kelsa, tanlamasdan yuta berishdir,

Arra baliq akulalar avlodiga kiradi. U okeanlarda qirchoqqa yaqin joylarda yashaydi. U suv tagida suzib yuradi va suv tagi loyqasini arra tumshuqi bilan kavlab, chuvalchanglar va chiqanoqlarni qidiradi qamda ular bilan ozikdanadi.

Kunlardan bir kuni uzunligi 10 m ga etadigan arra baliqni ushlab olishgan. Uning 2 m lik tumshuqining chekkalarida qator katta-katta tishlari bo'lgan. Bu baliq «arrasi» bilan loy orasidan qar xil mayda-chuyda jonivorlarni kavlab olibgina qolmay, balki ba'zan yirik yolqonoyoqlarni «arralab» bo'lib tashlaydi. Orqaga tashlanib turib zarb bilan kelib urilganda yolqonoyoqning bir parchasini uzib oladi. Uni yutib olgach, yana qujum qiladi. Janubiy tropik dengizlarda uzunligi bor-yo'qi 10 sm ga etadigan kichkina baliqcha yashaydi. U yumaloq baliqning bir turidir. Uning ajoyib qimoya usuli bor. Biror xavf tuqilgudek bo'lsa, u shu zaqotiyoq yon boshida joylashgan pufakchasini shishirib yuboradi va katta sharga aylanadi. Tanasi 20 baravar kattalashib ketadi. Bu vaqtda yumaloq baliqni qatto katta yirtqich balikdar qam yutib yubora olmaydi».

O'qituvchi dengiz va okeanlarning mineral boyliklari qaqida gapirganda o'quvchilar diqqatini dengiz suvidan xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan moddalar yildan-yilga ko'proq olinayotganligiga qaratadi. Dengiz suvidan qatto oltin olish mumkin, lekin qozircha u juda qimmatga tushadi. So'ngra o'qituvchi dengiz va okean suvlarini muqofaza qilish yuzasidan ba'zi bir mamlakatlarda amalga oshirilayotgan tadbirlar qaqida so'zlab beradi.

Uyga topshiriq: darslikdan o'qish va paragraf oxirida berilgan savollarga javob qaytarib kelish.

7-dars. Er usti suvlari. Daryolar. Daryolarning tuzinishi va rejimi

Jiqozlar: Yarimsharlarning tabiiy kartalari.

O'qituvchi o'quvchilardan so'rab bo'lgandan keyin shunday deydi: «Bugun er usti suvlari, daryolar qaqida gaplashamiz. Katta va kichik bo'lib, 200 mingdan ortiq daryo bor. Ular go'yo moviy to'r kabi butun mamlakatimiz er yuzini qoplab olgan. qar bir daryoning boshlanadigan joyi bo'lib, daryo boshi, manbai deb ataladi. Bir daryo

botqoqlikdan oqib chiqsa (o'qituvchi doskaga botqokdikning shartli belgisini chizadi), boshqasi bulokdan boshlanadi (o'qituvchi buloqning shartli belgisini chizib qo'yadi), uchinchi daryo esa toqlar yonbaqridan oqib tushadi. Bu xil daryolar toqlardagi muzlardan suv oladi. To'rtinchi daryo ko'ldan oqib chiqadi.

Bolalar, Amudaryoni boshlanadigan joyini men sizlarga aytib beraman, eshiting.

Daryo yuzlab kilometr oqib borib, dengizgami, ko'lgami yoki boshqa bir daryogami quyiladi. Daryoning dengizga, ko'lga yoki boshqa bir daryoga quyiladigan joyi daryo mansabi deyiladi. (o'qituvchi doskaga daryo sistemasining sxemasi 6-rasm)ni chizadi va unga mansab, o'ng va chap qirkoqdar, o'rta. quyi qamda yuqori oqimlar, o'ng va chap irmoklar, daryo boshini yozib qo'yadi.) Biz sxemamizda bosh daryo va uning irmokdarini tasvirladik. Endi sizlar geografiya daftaringizga «Daryo sistemi» deb sarlavga qo'ying va doskaga chizilgandey sxemani chizib qo'ying.

Shundan keyin o'qituvchi daryoning o'zani, qayiri va vodiysi deb nimaga aytilishini gapiryuib boradi.

RASM

6-rasm. Daryo sistemi sxemasi.

RASM

7-rasm Daryo vodiysining tuzilishi sxemasi

O'qituvchi daryo vodiysining ko'ndalang kesimini doskaga chizadi, o'qituvchilar uni daftarlarga chizib oladilar. (7-rasm). Keyin o'qituvchi bolalarga «Sizlar ekskursiya vaqtida ko'rgan anqor yoki daryo qanday oqadi» deb savol beradi. O'quvchilar anqor, daryo, uning qanday oqishi, qayiri, qirkoqlari qaqida so'zlab berishadi.

Siz bilasizki,— deb davom etadi o'qituvchi,— daryodagi suv miqdori butun yil bo'yi bir xilda bo'lmaydi. Masalan, bizning daryomiz baqorda sersuv bo'ladi, qayirlarini suv bosadi, yoz oxiri va kuzda u sayozlashib qoladi. Nega shunday bo'ladiq Kuzda bizda yomqir juda kam bo'lganligidan daryoda suv ko'paymaydi. qishda esa ba'zan suv muzlab qoladi, suv kam bo'ladi, chunki bu vaqtda daryoga suv asosan buloklardan keladi.

Amudaryo bilan Sirdaryo suvi yozda eng ko'p bo'ladi. (o'quvchilar bu daryolarni o'z kartalaridan topishadi. o'qituvchi bu daryolar rasmlarini ko'rsatadi). Bunga sabab shuki, bu daryolar asosan toqlardagi muzlar erishidan suv oladi. Bu daryolar boshlanadigan toqlarda muzlar xuddi shu yoz oylarida ko'p eriydi.

Amur daryosi qam yozda toshadi (o'quvchilar uni o'z kartalaridan qidiradilar), lekin buning sababi boshqa. Gap shundaki, bu daryoning qavzasida yozda mo'l-ko'l yomqir yoqadi. Amazonka va Zair (Kongo) daryolari butun yil davomida sersuv bo'ladi, chunki ularning qavzalarida yil bo'yi ko'p mikdorda yomqir yoqib turadi.

Dunyodagi eng sersuv daryo Janubiy Amerikadagi Amazonka daryosidir. Bu daryo qavzasining maydoni 7 mln. km² (Avstraliyaning maydoni qam taxminan shuncha keladi.) Amazonka daryosi Atlantika okeaniga qar bir sekundda 120 ming m³ suv keltirib turadi. Shuncha suv bilan 1500 ta temir yo'l sistemasini to'ldirish mumkin, buncha sistema 15 ta eshelon bo'ladi.

Daryolar katta ish bajaradi: ular qirkoqlarini yuzadi, o'zining o'zanini chuqurlashtiradi. Lekin suv faqatgina emiruvchi emas, u bunyodkor qamdur. Daryo suvi yuvib olib kelgan butun loyqa va qum, uning quyar joyida to'planib, qum va gil yotqizikdarini, orolchalarni

qosil qiladi. Bu orollar bora-bora bir-birlari bilan tutashib ketib, tekisliklarni vujudga keltiradi. Agar yuqoridan qaralsa, bu tekisliklarning uchburchak shaklda ekanligini ko'rasiz (grekcha delta qarfining shakli uchburchak ko'rinishida bo'ladi). Shuning uchun daryolar mansabida (quyar joyida) suv keltirgan oqiziklardan vujudga kelgan tekisliklar delta deb ataladi.

Lena, Volga, Missisipi, Amazonka daryolarining deltalari juda katta.

Amazonka deltasining kengligi 335 km. Deltadagi yuzlab orollar orasida ancha katta orollar qam bor. Masalan, Marajo orolining maydoni butun bir Shvetsariya davlatining maydoniga keng keladi.

8-dars. Relfning daryolari yo'nalishiga va oqimi xususiyatiga ta'siri. Ostona toshlar va sharsharalar

Jiqozlar: Yarimsharlarning tabiiy kartalari, tekislik qamda toq daryolarining rasmlari. O'qituvchi o'quvchilardan so'rab bo'lgandan keyin «Daryoning yo'nalishi va oqimi xarakteriga relfning ta'siri» qismini o'qishni taklif qiladi. Shundan keyin o'qilgan material yuzasidan suqbat o'tkaziladi.

«Biz sizlar bilan ko'rgan daryo tekislikda oqadi, - deb davom etadi. O'qituvchi, - u sokin, uluqvor oqadi. Toqlarda daryolar boshqacha oqadi».

Toqdan oqar suv bebosh darqazab
Guvullab, shoshilib toshloq darada
O'kiradi go'yoki bo'ron
Tomchilari sachrar atrofga

qikoyadan so'ng o'kuvchilarga quyidagi savollar beriladi: 1. Relef daryoning oqim xususiyatlariga qanday ta'sir ko'rsatadiq 2. Relef daryolarning oqimi yo'nalishiga qanday ta'sir ko'rsatadiq

Shundan keyin o'kituvchi ostonalar va sharsharalar qaqida gapirib beradi. (Ostonalar rasmini ko'rsatadi)

Uyga topshiriq: darslikdan o'qish. Paragrif oxiridagi berilgan savollarga javob qaytarish. Viktoriya va Niagara sharsharalarini kontur kartada belgilab qo'yish.

9-dars. Ko'llar. Suv omborlari. Daryo va ko'llar suvlarini muqofaza qilish

Jiqozlar: Yarimsharlarning tabiiy kartalari, ko'llar rasmlari.

O'qituvchi o'quvchilar bilimini tekshirib bo'lgandan keyin ko'lga ta'rif beradi. So'ngra ko'llar suv to'ldirgan chuqurliklarning qosil bo'lishiga ko'ra bir necha turga bo'linishini aytadi. O'qituvchi bu turlarni sanab o'tadi va qar bir turga mansub bo'lgan ko'llarga misollar keltiradi. Toshkent dengizi (O'qituvchi ko'l rasmini ko'rsatadi.) Afrikaning ko'p ko'llari qam grabenlarda joylashgan. Pomir toqidagi Sarez ko'li qanday paydo bo'lgani qaqida eshiting:

1911 yil fevral oyida bir kun kechasi Bartang (Murgob) daryosining yuqori oqimidagi aqoli er qa'ridan chikqan qatgaq gumburlagan tovushdan uygonib ketdi. Gumburlagan tovushga toshlarning aldir-qulduri qam qo'shilib ketdi. Go'yo

allaqaerda ko'z ilqamas dev quturib, baqaybat Pomir toqlarini parchalab tashlayotgandek tuyular edi. Toq tepalaridan baqaybat qoya toshlar uchib tushmokda edi. Daqshatga

tushgan odamlar o'zlarini go'yo dengiz to'lqinida turgandek qis qilishar edi, oyoq ostidagi er siljir edi. qatgiq zilzila bo'ddi, Ustoy qishloqi ustidan ko'tarilgan chang bir necha kun osmonni qoplab

turdi. Chang-to'zon tarqagach, odamlar balandligi yarim kilometr keladigan tosh devor daryo o'zanini to'sib qo'rganini guvoqi bo'lishdi. qoya teshlardan vujudga kelgan devor jo'shqin daryo yo'li to'silib qolgan edi. Pomirdagi Sarez ko'li ana shunday vujudga keldi. Agar ko'l oqar ko'l bo'lsa, uning suvi chuchuk bo'ladi, oqmas ko'l bo'lsa, buning ustiga ko'l qurqoqchil. o'lkalarda joylashgan bo'lsa, ko'l suvi odatda sho'r bo'ladi». Shundan keyin o'qituvchi oqmas ko'llar suvi qanday qilib sho'rlanishini tushuntiradi. O'qituvchi davom etadi: «Dunyodagi eng sho'r ko'llardan biri Arabiston yarimorolida joylashgan. U o'lik dengiz deb ataladi.

O'lik dengiz suvining qar bir litrida 275 g tuz bor. O'lik dengizda odam cho'kmaydi: tuzga to'yingan suv juda zich bo'lib, odamni suv betida cho'ktirmay ko'tarib turadi. Mana shu ko'l bo'yida bo'lgan kishining qikoyasini eshiting:

Biz cho'ldan iborat qirqokda turibmiz, guvillagan cho'l manzarasi kishi tabiatini xira qiladi; tabiatda jon asri ko'rinmaydi: o't-o'lan qam, qushlar qam yo'q. Ko'lning narigi qirkoqida yashil suv ustidan qizqish rangli toqlar tik ko'tarilgan. Toq yonbarirlari yalangoch, o'yilib-o'yilib ketgan. Go'yo qandaydir bir qudratli kuch bu toqlar sirtidan tabiiy o'simlik qoplamini sidirib olganu, ona er barrini ochib tashlagan.

Biz cho'milmoqchi bo'lgandik, bizni bu fikrdan qaytarishdi. qavo salqin edi. Biz namokop suvda yuz-qo'limizni yuvib oldik. Bir necha daqiqadan so'ng bet va qo'llarimizni tuz rubori qopladi, lablarimizni tuz achitib, bizni shu qadar betoqat qilar ediki, bundan anchagacha qutulolmay yurdik.

Ba'zan Iordan daryosidan o'lik dengizga baliq kelib qolsa, bir daqiqada o'ladi. Biz qirkoqqa chiqarib tashlangan ana shunday bir kichik baliqni topib oldik. Uni tuz qobiq qoplagan, toshdek qotib qolgan edi.

Kaspiy bo'yi pasttekisligida etti yuzga yaqin sho'r ko'l bor. Bular orasida Bosqunchoq ko'li aloqida ajralib turadi. Olimlarning qisobiga ko'ra, qozirgi vaqtda Bosqunchoq ko'lida 40 mlrd. tonnaga yaqin tuz bor. Agar butun dunyo aqolisi shu tuzni iste'mol qilganda u 1500 yilga etar edi.

Amalda bu tuz koni, yoki boshqacha qilib aytganda, «butun-ittifoq tuzliqi» bitmas-tuganmasdir. Gap shundaki, daryo va jilqalar bu ko'lga qar yili million tonnaga yaqin tuz keltirib turadi.

Ba'zan ko'l o'rnida botqoqlik qosil bo'lishi mumkin. Ko'l tagiga loyqa va qum cho'kadi. Ko'l tobora sayozlashadi, maydoni kichrayadi. Bundan tashqari ko'l tagida o'simlik qam to'planadi, ma'lum vaqtdan keyin bu o'simlikdan torf qosil bo'ladi».

Shundan keyin o'qituvchi o'quvchilarni eng yirik suv omborlari bilan tanishtiradi qamda suv omborlarining qurilishi tabiatda ijobiy qodisalarga qam, salbiy qodisalarga qam olib keladi, deydi. Aytilganlar quruq gap bo'lib qolmasligi uchun misollar keltirish kerak.

Uyga topshiriq: darslikdan o'qish, paragraf oxirida keltirilgan savollarga javob qaytarish.

10-dars. Daryo va ko'llar suvlaridan foydalanish qamda ularni muqofaza qilish. Kanallar

Jiqozlar: Yarimsharlarning tabiiy kartalari.

O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savollarga javob berishni taklif qiladi: 1. Daryolardan

aqoli ehtiyojlari uchun qanday foydalaniladiq 2. Daryolardan sanoat ehtiyojlari uchun qanday foydalaniladiq 3. Daryolarga suv omborlari nima maqsadda quriladiq O'quvchilar savollarga javob berishadi, o'qituvchi esa ular javobini to'ldiradi. Kanallarning katta ahamiyatga ega ekanligini o'quvchilarga uqdirish uchun ularga kanal qaqida gapirib berish mumkin. Kanal orqali millionlab tonna yuk tashiladi. Yoqoch-taxta, qurilish materiallari, metall, neft, qalla, tuz keltiriladi. Mamlakatimizning qamma tomonlariga kemalarda mashinalar, gazlamalar, avtomobillar va boshqa yuklar tashish mumkin. Kanallardan faqat transport yo'llari sifatidagina foydalanilmasdan, dalalarni suqorish uchun qam foydalaniladi. Bu o'rinda o'kituvchi xalq xashari yo'li bilan bunyod etilgan Katta Farqona kanali qaqida so'zlab bersa, yaxshi bo'ladi. Uyga topshiriq: darslikdan o'qish, par.agraf oxirida keltirilgan savollarga javob qaytarish.

11-dars Er osti suvlari

Jiqozlar: yarimsharning tabiiy kartalari, artezian quduq modeli, stakan, voronka, qum, tuproq.

O'qituvchi darsni yangi materialni tushuntirishdan boshlaydi. «Er kurrasidagi butun suvning 98,3%i okean va dengizlarda to'planganligini endi sizlar bilasiz.

RASM

8-rasm. Suvning qum va gnldan suzib o'tishi.

Suvning tabiatdagi aylanma qarakati tufayli er yuziga qar yili juda ko'p miqdorda yogin tushadi. Bu suv qaerga ketadiq Suvning bir qismi buqlanib ketadi, bir qysmi daryo va ko'llarga oqib tushadi qamda bir qismi er ostiga singadi. Daryo, ko'l, suv omborlari, qovuzlar suvlari er usti suvlari deb ataladi, lekin er ostidagi suv er osti suvlari deb ataladi. qamma tog jinslari qam suvni bir xilda yaxshi o'tkazadi-miq Bu savolga javob berish uchun shunday bir tajriba qilamiz (8-rasm). qum va mayda tuproqni olamiz. Men bir voronkaga qum solaman, boshqa voronkaga mayda tuproq solaman. qar ikkala voronkaga suv quyamiz. qum solingan voronkada suv qumdan bir pastda sizib utib, stakanga tushadi. Ikkinchi voronkadan esa oqib tushmaydi.

Shuningdek, yirik qum, shaqal, yorilib ketgan oqaktosh qam suvni osongina utkazib yuboradi. Bu jinslar suv utkazadigan jinslar deyiladi. Mayda tuproq, yorilmagan granit va boshqa ba'zi bir xil toq jinslari suvni o'tkazmaydi yoki juda sekin utkazadi Bu jinslar .suv utkazmaydigan jinslar deyiladi.

Yomqir va baqorda erigan qor suvlari suv o'tkazadigan jinslardan osongina shimilib utib, suv o'tkazmaydigan qatlam ustida to'planadi va suvli qatlamni qosil qiladi. Agar suvli qatlam biror tomonga qiya bo'lsa, suv nishab tomonga oqib bo-rib, biror joyda er yuzasiga chiqadi va buloq qosil qiladi. (o'qituvchi buloqning qosil bo'lish sxemasini (9-rasm) doskaga, o'quvchilar esa daftarlariga chizadilar.)

RASM

9-rasm. Buloqning qosil bo'lish sxemasi

Mamlakatimizda shaqar aqolisining yarmiga yaqini va qishloq aqolisining deyarli 4G`5

qismi er osti suvini iste'mol qiladi.

qozirgi vaqtda mamlakatimizda bir necha o'n ming oddiy quduq bor. Yana artezian quduqlar qam bor. (Endi artezian quduqini ko'rsatish va undan yangi material tushuntirilayotgan vaqtda foydalanish mumkin). Suvli qatlam ikkita suv utkazmaydigan qatlam orasida joylashgan bo'lsa, suvli qatlamda-gi suv katta bosim ostida bo'ladi. Shunday joyda suvli qatlamgacha burq qudugi qazilsa, suv favvora bo'lib otilib chiqadi. Ukraina, qozoqiston, O'zbekistonda va boshqa joylarda un minglab artezian quduqlari qazilgan».

O'quvchilar artezian quduqi sxemasini daftarga chizib olishadi.

Shundan keyin o'quvchilar o'qituvchi yordamida darslikdan grunt suvlari satqi qaqida yozilgan tekstni o'qishadi. Grunt suvlari satqining nimalarga boqliq ekanligi aniqlanadi. o'quvchilarga joy planini ko'rib chiqib (darslikka ilova qilingan kartaga qarang), quyidagi savollarga javob berish taklif qilinadi 1. Obodon va Yangiqishloq qaysi daryolar qavzasiga qaraydiq 2. qorasoyning o'ng va chap irmoqlari nomini ayting. Bu irmoqlar qaerdan boshlanadiq 3. qaysi aqoli punktida quduq borq 4. qorasoyning qaysi qirchoqi balandroqq Dars yakunida o'qituvchi er osti suvlarini muqofaza qilish qaqida so'zlab beradi. Agar bu suqbatda maqalliy o'lka-shunoslik materiallaridan foydalanilsa, yaxshi bo'ladi.

Uyga topshiriq: darslikdan o'qish. Paragraf oxirida berilgan savollarga javob qaytarish.

12- dars. Muzliklar va ularning aqamiyati

Jiqozlar: Yarimsharlarning tabiiy kartalari. «Toq muzligi», Antarktidadagi «Molodejnaya» qutb stantsiyasi rasmlari.

O'qituvchi darsni yangi materialni tushuntirishdan boshlaydi.

«Sizga ma'lumki, gidrosfera faqat okean, dengiz, daryo, ko'l va botqoqliklar suvlaridan iborat bo'lib qolmay, unga qattiq (muz) qolatdagi suv qam kiradi. Erda muz juda ko'p. Agar muzlar erib ketsa, Dunyo okeani suvi satqi 64 m ga ko'tarilgan bo'lar edi. Bunda yuzlab yirik va minglab kichik shaqarlar qamda qishloqlar suv tagida qolib ketgan bo'lar edi.

Mo'zliklar qoplama muzliklar va tog muzliklariga bo'linadi. qoplama muzlik, masalan, Antarktidani qoplagan. (o'qituvchi rasmni ko'rsatadi) Ko'p mamlakatlar olimlari, shu jumladan Sobiq Ittifoqi olimlari qam bu materikni o'rganmoqdalar. Rus olimlari qurgan birinchi Antarktida stantsiyasi «Mirniy» deb atalgan. U o'n yildan ortiq ishlab turdi, lekin unitashlab ketishga tuqri keldi, chunki stantsiyaning qamma inshootlarini qar yili tomigacha qor bosib qolar edi. Endi Antarktidadagi stantsiyalarda «Uchuvchi uylar» quriladigan bo'lgan. Mustaqkam metall poydevor uylarni erdan ancha balandga ko'taradi. Bunday uylarni qor qech qachon bosib qolmay-di, chunki shamol uy tagidan utib, qorni uchirib ketaveradi.

Ilmiy shaqarchasi yaqinida imperator pingvinlarning katta galasi yashar edi. Pingvinlar qishning eng qaqraton kunlari (iyul oyining o'rtalarida) bola ochadilar. Tuxumni yangi ochib chiqqan momiqsiz, murgak jo'jalar asosan ota-onalari tarbiyasqda buladi. Yosh qushchalar katga pingvinlar qo'yniga kirib olib, ularning qornidagi maxsus qat-qat teri orasida isinib yotadi. Agar ona pingvin oziqni o'z vaqtida etkazib kela olmasa, ota pingvin o'zidagi maxsus bezlar yordamida moydan qaymoqsimon modda ishlab chiqib, bolasining oqziga quyadi. Bu «qush suti» ona pingvin etib kelguncha quvvat bo'lib turadi. qutbchilar pingvinlarning bunday galalarini «yaslilar» deb bejiz aytishmagan.

Shundan keyin o'qituvchi tog muzliklari, ulardan ko'plab tog jilqalari va daryolari suv olishi to'qrisida, qozirgi vaqtda olimlar muzliklar suvidan qanday qilib yaxshiroq foydalanish ustida ishlayotganliklari qaqida, muzliklarning aqamiyati tugrisida gapirib beradi.

Darsning ikkinchi qismida «Gidrosfera» mavzui yuzasidan umumlashtiruvchi takrorlash o'tkazish mumkin. o'quvchilar darslikdagi shu mavzu teksti oxirida berilgan savollarga javob qaytarishadi va topshiriqlarni bajarishadi.

Uyga topshiriq: «Gidrosfera» mavzusi yuzasidan «o'z o'lkasi» rubrikasida berilgan savollarga javob tayyorlash. (Ramlar yordamida)

ATMOSFERA

Jiqozlar: globus, kolba, tarozilar, spirt, lampasi.

O'qituvchi darsni yangi materialni tushuntirishdan boshlaydi: «Endi biz sayyoramizning uchinchi qobiqini — atmosferani, ya'ni qavo qobigini o'rganishga kirishamiz. qavo qobigi Erni ko'rinmas ko'rpa kabi o'rab olgan, qalinligi bir necha ming kilometr ga etadi. qavo juda engil, lekin baribir ma'lum ogirlikka ega, (o'qituvchi stol ustiga bir pallasiga kolba o'rnatilgan tarozini qo'yadi. Tarozi muvozanatga keltirilgan. O'qituvchi kolbani isitadi. Bir oz vaqtdan keyin tarozining muvozanati o'zgaradi. Go'yo kolba engil bo'lib qolgandek bo'ladi. O'qituvchi spirt lampasini olib qo'ygandan keyin bir oz vaqt o'tgach tarozi yana muvozanatga keladi).

Nima uchun tarozining muvozanati buzildi, chunki kolbadagi qavo qiziganda kengayib, uning bir qismi kolbadan chiqib ketadi. Natijada kolba ichidagi qavo miqdori kamayib, u engillashib qoldi. Kolba soviganda, undagi qavo miqdori oldingiday bo'lib, tarozi yana muvozanatga keldi».

O'quvchilar daftarlariga «Atmosferaning tuzilishi» deb sarlavqa yozib qo'yishadi.

O'qituvchi o'quvchilarga qavoning asosiy qismi atmosferada to'planganini va yuqoriga ko'tarilgan sari qavrning siyraklashib borishini tushuntiradi. U atmosferanikg aqamiyati qaqidagi qikoyani quyidagi kengaytirilgan plan bo'yicha olib boradi:

Atmosfera quyosh nurlarini tarqatadi va quyosh nuri kunduzi Er yuzasini juda qizdirib yubormaydi. Tunda esa atmosfera, aksincha, erning tez sovub qolishiga yo'l qo'ymaydi va ko'rinmas ko'rpa bo'lib issiqni saqlaydi.

